

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DABLAT UNIVERSITETI
TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI
TARIX TA‘LIMI YO‘NALISHI 4-KURS TALABASI
ABDURASULOVA GULCHIROYNING

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

MAVZU: ANDIJON VILOYATIDAGI TARIXIY-ME‘MORIY OBIDALAR



Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi N.Xudoyorov

Andijon – 2015

MUNDARIJA:

KIRISH.....3-13

1. Bob. Andijondagi tarixiy obektlar va ularning tarixi (“Jome” madrasasi va

“Qal’a” memoriy yodgorligi misolida).....14-50

2. Bob. Qutayba ibn Muslim maqbarasi o’lka tarixini o’rganishdagi roli va

ahmiyati.....51-57

3. Bob. “So’fi ota” masjidi tarixiy- me’moriy yodgorlik

sifatida.....58-60

XULOSA.....61-63

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yhati.64-65

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘z istiqloli va istiqboli sari yuz tuta borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotiga xos eng muhim o‘zgarishlardan biri-xalqimizning o‘tmishi, tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan madaniy merosimiz o‘rganishga, uni haqqoniy baholashga bo‘lgan ehtiyojlarning o‘sa borayotganligi bilan izohlash mumkin. Muhtaram yurtboshimiz I.Karimov, - *«Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizni o‘z yurti tili va madaniyati, qadriyatlarini, tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda»*¹ -deb bejizga yozmagan edilar.

Xalqimizning ongi va dunyoqarashida vujudga kela borayotgan bunday ijtimoiy faollik boy madaniy merosimizga nisbatan qiziqish talablarni rivojlantira borish bilan bir qatorda, bugungi kunimiz ruhi va xarakteriga xos yangicha munosabatlar zarurligini taqoza etishi ham tabiiy holdir. Chunki, madaniyatimiz va ma’naviyatimizning hayotbaxsh zamini sifati necha asrlar osha yashab kelayotgan madaniy merosimizni xolisona tahlil etish yoki zaruriyatini anglab yetish, uning u yoki bu namunasining ma’lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichida tutgan ahamiyati yoki qimmatdorligini belgilash bilangina masalaning yechimini hal etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda shu boradagi masalaning nozik jihati shundaki madaniy merosimiz haqida mushahoda, baxs va munozara yuritganimizda uning qaysi bir jabhalari mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotida, qolaversa, yurtimizda barpo etilayotgan ozod va obod Vatan ravnaqi uchun qanday ustuvor ahamiyat kasb eta olishini ajrata bilishimizga bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun esa, madaniy merosimizga bo‘lgan ehtiyojlarimiz tizimida ham ijodiy, ham tanqidiy me’yorlar va qarashlar zarurligini nazardan qochirmasligimiz lozim. Shuning uchun ham I.Karimov *«Biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi*

¹Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" "Muloqot" jurnali 1998-yil 5-son,-B.1

jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»¹ - deb alohida ta'kidlab o'tgan edilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda betakror qudratli kuchga aylana borayotgan xalqimiz ma'naviyatining tag zaminlari bo'lgan, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, fanimiz, adabiyotimiz, san'atimiz, ta'lim va ma'rifatimizning serqirra jabhalarini o'zida mujassamlashtirib kelgan madaniy merosimizga nisbatan rivojlana borayotgan ehtiyojlarimizning tarixiy zaruriyatga ko'tarila borishining bir qator ob'ektiv va sub'ektiv asoslari borligini nazardan qochirmaslik lozim.

Biz uchun o'tmish, tuzumdan xalqni o'z madaniyati va ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan o'zligini anglashidan mosuvo qilish, uni milliy qadriyatlaridan begonalashgan manqurtlarga aylantirishga qaratilgan siyosat tufayli og'ir meros qoldi. Qolaversa, mazkur siyosat oqibatida biz tilimiz, madaniyatimiz, tariximizga bepisandlik bilan qaradik, o'tmishimizni zo'r berib qoralash va kamsitish yo'lini tutdik. Bir necha ming yillik madaniy merosimizni, milliy tariximiz, milliy an'analar, diniy urf-odatlarimizni unuta boshladik. Ohir oqibatda, jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan islom ta'limotini ko'r-ko'rona inkor eta bordik. Eng achinarlisi, islom diniga qarshi ochiqdan-ochiq kurash e'lon qildik. Dindorlar ma'naviy tahqirlandi, ularning huquqlari cheklab qo'yildi, masjidlar yopilib ko'plari buzib tashlandi, diniy bayramlar oyoq osti qilindi, tariximiz bir tomonlama, yuzaki o'rganildi. Fikrlar erkinligiga yo'l qo'yilmadi. Barcha aholi ongida kommunistik dunyoqarashni shakllantirishga zo'r berilib, madaniy inqilob shiori ostida o'zbek xalqining yuzlab iste'dodli, iqtidorli, bilimli, istiqbolchi farzandlari qatag'on qilindi. Ayni mana shu jarayonda madaniy merosimizning ko'plab namunalari vayron qilindi, noyob madaniy boyliklarimiz talon-taroj qilinib, bir qismi tashib ketildi.

Ma'lumki, mamlakatimizning sharqiy mintaqasida, haqli ravishda «oltin

¹Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent., "O'zbekiston"1996-yil,-B.34

vodiy» deb nom olgan Fargʻona vodiysida joylashgan Andijon viloyati oʻzining betakror tabiati, koʻhna tarixi, katta iqtisodiy salohiyati, unumdor tuprogʻi, boy dehqonchilik anʼanalari, eng muhimi, mehnatkash, tadbirkor va mirishkor insonlari bilan alohida ajralib turadi. Bu viloyat ona Oʻzbekistonimizda erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsad yoʻlida, barcha hudud va mintaqalarimiz qatori, munosib hissa qoʻshib kelmoqda.

Istiqlol yillarida iqtisodiyot, ijtimoiy va maʼnaviy xayotda salmoqli yutuq va natijalarga erishgan, ayrim jabhalarda xatto oʻziga xos maktab yaratgan viloyat ahling ibratli ishlari haqida koʻp gapirish mumkin. Bu haqda soʻz yuritganda, bir xaqiqatni, yaʼni bunday oʻzgarishlarning barchasi birinchi galda Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatimizning taraqqiyot modeli bilan, uzoq va davomli maqsadlarni koʻzlagan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi bilan uzviy bogʻliq ekanini taʼkidlash joiz.

Qoradaryo boʻyida, oʻtroq xayot uchun gʻoyat qulay manzilda joylashgan Andijon Buyuk ipak yoʻlidagi muhim maskan sifatida qadimdan oʻzining dehqonchilik va sugʻorish madaniyati, paxta va ipak matolari, sopol buyumlari hamda boshqa hunarmandchilik maxsulotlari bilan shuxrat qozongan. Bu yerdagi dastlabki sivilizatsiya oʻchoqlari haqida miloddan oldingi II asr Xitoy solnomalarida maʼlumotlar uchrashi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Demak, Andijon zaminidagi madaniy hayot nishonalari koʻp ming yillar oldin vujudga kelgan, deb aytishga barcha asoslar bor. Markaziy Osiyodagi eng qadimiy manzilgohlardan biri boʻlgan, hozirgi Jalolquduq tumani Oyim qishlogʻ yonida joylashgan Dalvarzintepa shaxar xarobasi, Eylaton yodgorligi meʼmoriy qoldiqlari, Mingtepadagi Ershi misolida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin.¹

Vodiyning qadimgi, Respublikaning eng sharqiy qismida joylashgan shaharlaridan biri Andijondir. Bu shahar oʻzining joʻgʻrofiy joylashgani va iqtisodiy salohiyatiga koʻra oʻziga xos va qadimiy tarixiga egadir. Uning qadimgi davri tarixini oʻrganishda YA.Gʻulomov, M.E.Masson, A.K. Pisarchik, B.Abdulgʻozieva, G. Dadaboev, S.Jalilov, B.X.Matboboev kabi tatqiqotchilarning

¹ Matboboyev B, MashrapovZ, Andijon tarixi. Toshkent.: "Sharq", 2014-yil,-B.16.

asarlarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, 2000-2008 yillar mobaynida B.X.Matboboevning arxeologik qazishmalaridagi topilmalarini alohida qayd etish lozim. Masalan, ayni shu olimning tadqiqotlari asosida shaharning qadimgi va o'rta asrlar davridagi rivoji tarixi, shaharning tuzilishi to'g'risida qimmatli materiallar to'plandi. B.X.Matboboyev va Z.Z.Mashrapovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari Andijonning shaharsozligini 2500 yillik tarixga ega ekanligini ilmiy asoslab berishga harakat qilmoqdalar.¹ Andijonning qimmatli topografiyasi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar etnograf A.K.Pisarchik tomonidan 1938, 1944 va 1947 yillarda olib borilgan. Buning natijasida shaharning tarixiy planini yaratish, darvozalari va masjidlarini aniqlash mumkin bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Andijon viloyati tarixini o'rganish bo'yicha bir qator kitoblar nashr yuzini ko'rdi.² Ushbu kitoblar Andijonning qadimgi tarixidan bugungi kungacha bosib o'tgan yo'li yoritib o'tilgan. Shuningdek ushbu kitoblarda Andijondagi tarixiy obidalar va madaniy meros ob'ektlari haqida ham ma'lum bir ma'lumotlar keltirilgan.

Shuning uchun bitiruv malakaviy ishda tarixiy madaniy meros obektlarini tiklash va ularni muhofaza qilish borasida Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish bugungi kun dolzarb moasalalaridan biri sanaladi. Buning zaminida esa Andijon viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, taraqqiy ettirish va viloyatimizdagi tarixiy obidalarni xalqaro turizm marshrutiga kirish masalasi turadi, albatta. Biz BMIda manba va adabiyotlar asosida ana shu masalalarni yoritib o'tishga harakat qildik.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Bugungi kunda Andijon viloyatidagi madaniy meros ob'ektlarining holati to'laqonli yahshi deya olmaymiz. Shu boisdan ushbu muammoni teran o'rganish va atroflicha yoritishga katta ahamiyat berilmoqda. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va boshqa bir qancha dasturulamal hujjatlarda, Prezidentimiz Islom Karimov asarlari,

¹ .Matboboyev B, Mashrapov Z. Andijon tarixi. Toshkent: "Sharq", 2014-yil, -B.6.

² Janntmakon Andijon. Shokarimov S. Sultonov A. -Toshkent: "Toshkent islom universiteti", 2002; Bugungi Andijon. -Toshkent: "O'zbekiston", 2006-y; Ko'hna va navqiron Andijon. Shamsutdinov R., Mamajonov M., Matboboyev B., Bozorov Q., Jumaboyev I. -Toshkent: "Sharq", 2010.

kitoblari, risolalari, nutqlari, ma'ruzalari, savol-javoblarida madaniyat va ma'rifatning rivojlanishi, xususan madaniy merosning tiklanishi va yangilanishi masalalari o'zining chuqur va keng ifodasini topa boshlagani ham fikrimizning eng yaqqol dalil - isbotidir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dasturi bo'lgan, 1992 yil mustaqilligimizning bir yilligi arafasida bosilib chiqqan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida O'zbekistonni rivojlantirishning strategik vazifalarini belgilab bergan edilar.

Yurtboshimiz ushbu asarida mustaqillikdan keyin mamlakatimizni rivojlantirishning ma'naviy- ahloqiy negizlarini ham asoslab, «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga ko'ra asoslanadi, Bu negizlar:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- «Vatanparvarlik»-deb belgilab berdilar.¹

Prezidentimizning ushbu tamoyillari va xulosalari «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik» (1993), «Istiqlol va ma'naviyat» (1994), «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining amaliy tamoyillari» (1995), «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy tamoyillari» (1996), «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997), Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin» (1998), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998), «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qo'rmoqdamiz» (1998), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999) «Milliy istiqlol mafkurasi - xalq

¹Karimov I. "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", Toshkent: "O'zbekiston", 1996-yil, -B.76

e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» (2000), «Kamolot» yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin» (2001), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Vatanimizning tinchligi va havfsizligi o'z kuch – qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq» (2001) «Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» (2005), «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi» (2005) kabi kitoblari, nutqlari va ma'ruzalarida hamda ularning bu boradagi masalalarni qamrab olgan 12-jilddan iborat asarlarida yanada rivojlantirildi, boyitildi. Eng muhimi ayni ana shu manbalar O'zbekiston Respublikasida madaniyat va ma'naviyatning xususan madaniy merosning tiklanishi, yangilanishi va yuksalishi masalalarini ochib berishga muhim va beqiyos dasturi-amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni chog'da mustaqil O'zbekistonning madaniy rivojlanishi sohasida qilinayotgan ishlarning miqyosi va ko'lam hamda ahamiyati, bu borada mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llarini ochib berishda Respublikamizning olimlari va tadqiqotchilarning e'tibori ham yanada kuchaydi. Andijon viloyati hokimligi tomonidan har besh yilda madaniy meros obektlari ro'yhatga olinadi va obekt holati o'rganiladi. 2005-2011 yillarda ham madaniy meros obektlari ro'yhatga olindi.

Mustaqillik davrida madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishi hamda uning muammolari, jumladan tarixiy obidalarni tiklanishi va yangilanishi masalalariga bag'ishlangan bir qator salmoqli monografiyalar, kitoblar, risolalar va maqolalar yozildi, ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmalari tayyorlandi.¹

¹ Azizxo'jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T., «Sharq» nashriyoti, 1997;. Alimova Nodira. Noyob qo'lyozmalar taqdiri. T., //Muloqot, 2001 yil, №4, - B. 34.; Ahmedov B. Tarixdan saboqlar Toshkent., «O'qituvchi» nashriyoti, 1994;. Buyuk siymolar, allomalar. (Markaziy Osiyodagi mashhur mutafakkir va donishmandlar) .T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1996, – B. 11-16,19-27,71-78 2-kitob ; Ziyaev X.Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi. T., "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at " nashriyoti, 2000, - B. 81-86; Nasriddinov A. Milliy ong va madaniy meros T., //Muloqot, 2001 yil, 5-son, - B. 10-11.

Mazkur adabiyotlarda O'zbekiston mustaqil taraqqiyotiga qadam qo'yganidan buyon o'tgan yillar davomida madaniy-ma'naviy sohada yuz bergan o'zgarishlar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni ko'rsatishga, hamda umumlashtirishga sa'y-harakatlar qilingan. Ayni chog'da ularda mustaqilligimizning madaniy-ma'naviy zaminlarini mustahkamlash va xalq orasida keng yoyish masalalariga alohida e'tibor berilib, mazkur sohalarda mavjud bo'lgan muammolarni hal etish yo'llari yoritilgan. Lekin, mavjud adabiyotlarda mustaqillik sharofati bilan erishilgan yutuqlar tizimi ommabop tarzda o'rganilmagan va umumlashtirilmagan. Qolaversa, istiqbol davri madaniy tiklanishga oid masalalar «sochilgan» tarzda bayon qilingan. Ularda madaniy yuksalishlarning tarkibiy qismlari –xususan, madaniy meros obektlarini tiklanishi va yangilanishi muammolari borasida qilingan ishlar ma'lumotnoma sifatida ta'kidlanib, ularning mohiyati va ahamiyati etarli yoritilmagan. Vaholanki, masalaning shu jihati hozirgi bosqichda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, har bir jamiyat hayotida bo'lgani singari mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini ham madaniyatimiz, ayniqsa ma'naviy boyliklar, jumladan madaniy merossiz tasavvur etib bo'lmaydi. Prezidentimiz Islom Karimov o'qitganidek: **«Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.»**¹

O'tgan asrning o'rtalariga kelib, jahon jamoatchiligi ana shunday nodir va betakror yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni umumbashariyat mulki sifatida kelajak avlodga etkazish masalasiga e'tibor qaratdi. YUNESKO tashkiloti 1972 yili Parijda bo'lib o'tgan simpoziumda Madaniy va tabiiy meros yodgorliklarni muhofazaga olish haqida rezolyusiya qabul qildi. 1983 yilda BMT tomonidan 18 aprel - "Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni" deb belgilandi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil, -B. 137-138.

2003 yilda esa YUNESKO tashkiloti Nomoddiy madaniy meroslarni muhofazaga olish haqida ham qaror qabul qilgan.

Ma'lumki, O'zbekistonda ham tarixiy obida va madaniy yodgorliklar juda ko'p. Ular xalqimizning o'tmishini o'zida mujassam etgan milliy qadriyatlarimiz namunasi, xalqimizning bebaho mulkidir. Yurtimizdagi yuzlab ko'hna va betakror obidalar asrlar davomida jahon ahlini lol etib kelmoqda. Shu bois ularni o'rganish, muhofaza qilish, kelajak avlodga bus-butun yetkazish ayni kundagi muhim vazifalardan biridir.

Bu borada yurtimizda keng-ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 30 avgustda qabul qilingan **"Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"**gi qonuni bilan huquqiy muhofazaga olingan. Ushbu qonun 7 bo'lim, 36 moddadan iborat. Shu bilan birgalikda Konstitutsiyamizning 49-moddasida ham ma'naviy va madaniy merosimizni asrab avaylash fuqorolarning majburiyati ekanligi uqtiriladi.

Respublikimizda madaniy merosni tiklash va uni yangi bosqichga ko'tarish borasida Prezidentimizning 1996 yil 9 sentyabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni xalqning madaniyati va ma'naviyatini yanada yuksaltirishga, madaniy merosining noyob namunalarini to'plashga, avaylab-asrashimiz, kishilarni o'z vataniga chinakam sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

1996 yil sentyabr oyi oxirida «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi qoshidagi «Oltin meros» Xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» ham Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdiki, uni barcha ziyolilar, ijod ahli zo'r mamnuniyat bilan kutib oldi.

Bu borada 1998 yil 24 iyulda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining» ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2000 yilning 2 iyunidagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi yangi farmoni esa mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g’oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasiga o’lkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo’ldi. Natijada respublikamizda xususan Andijon viloyatida Madaniy merosimizni o’rganishga qaratilgan bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda viloyatimizda mahalliy va respublika ahamiyatiga molik 371 ta tarixiy va madaniy meros ob’ektlari ro’yxatga olingan, - deydi madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi Andijon viloyat bo’limi yetakchi mutaxassisi Dilshodbek Yusupov. - Ulardan 114 tasi arxeologik, 66 tasi me’moriy yodgorliklar, 117 tasi mahobatli san’at yodgorliklari-haykallar bo’lib, qolgan 74 tasi esa diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlardir.

Mavzuning maqsad va vazifilari. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda quyidagi maqsad va vazifalar qo’yilgan:

- Andijon viloyati qadimiy arxeologik yodgorliklar haqida ma’lumotlar berish
- Hukumat tomonidan madaniy meros ob’ektlari foydalanish va ularning muhofaza qilish bo’yicha qabul qilingan qonunlarga izoh berish;
- Bugungi kunda madaniy meros ob’ektlarini davlat tomonidan muhofaza etilishi va ularning foylanishning yoritib o’tish;
- Madaniy meros ob’ektlari haqida umumiy tushuncha berish.

Mavzuning ilmiy yangili. Andijon viloyatida mustaqillik davrida madaniy-ma’naviy merosimizning tiklanishi va yangilanish jarayonini o’rganish, ularni ommabop tarzda xalqimizga yetkazish bugungi kunimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Zero, falsafa fanlari nomzodi, dotsent A.Erkaev to’g’ri ta’kidlaganidek: «Madaniy merosni o’rganishdan maqsadimiz o’tmishga sig’inish emas, balki o’tmishga suyanib undan foydalanib olg’a siljish, rivojlanishining yangi

bosqichiga chiqishdir. Madaniy merosning har bir hodisasini, qadriyatini baholaganda, amalda foydalanmoqchi bo'lganimizda ularning qay darajada O'zbekistonning milliy istiqbolining ma'naviy asoslarini mustahkamlab olishi, insonparvarlikka, taraqqiyotga, ezgulikka nechog'lik xizmat qila olishi, bosh mezon bo'lmog'i kerak».

Shu ma'noda ham, xalqimizning o'tmish madaniy merosini o'rganishni mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj nuqtai nazardan qarashimiz lozim. O'lkamizdagi tarixiy obidalar (Jome madrasasi, "Qal'a", Qutayba ibn Muslim maqbarasi, "So'fi ota" masjidi) orqali viloyat o'lka tarixini yoritish, o'rganish va yangiliklar berishdan iboratdir. BMIda madaniy, ma'naviy merosimiz obidalarini o'rganish orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

Maktab, kollej, litseylarda O'zbekiston tarixi, o'lkashunoslik darslarida, o'lka tarixini yoritishda, tarix fani to'garaklarida, fan olimpiadalarida ushbu BMIdan qo'llanma sifatida foydalanishni tavsiya etamiz.

«O'tmish madaniy merosimizni o'rganishdan maqsad:

Birinchidan, O'rta Osiyo xalqlarining tarixda tutgan o'rnini, o'ziga xosligini, ularning jahon madaniyat xazinasiga qo'shgan hissasini aniqlash va ularni ilmiy, xolisona baholash; O'lkamizda mavjud bo'lgan tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, majmualar (Jome madrasasi, "Qal'a", Qutayba ibn Muslim maqbarasi, "So'fi ota" masjid majmuasi va boshqalar) tarixini ahamiyatini, qurilishini, xalq orasidagi ahamiyatini hozirgi kun xolisliyi nuqtai nazaridan ilmiy asosda yoritish;

Ikkinchidan, o'tmish madaniy merosni xalq uchun arziydigan, xizmat qiladigan, jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shadigan eng ilg'or iqtidorli yoshlarni tarbiyalashda foydalanish, Shulardan kelib chiqib, mazkur bitiruv malakaviy ishimizda Andijon viloyatidagi madaniy meros ob'ektlarini o'tmish tariximizda toptalishi va mustaqillikka erishishganimizdan so'ng tiklanishi hamda yangilanishi, ba'zi tarixiy-me'moriy

obodalarimizning hozirda ham ta'mirga muhtoj ekanligi kabi masalalarni tahlil etishga harakat qildik.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilova va taqdimot qismlaridan iborat.

1.Bob. Andijondagi tarixiy obektlar va ularning tarixi ("Jome" madrasasi va "Qal'a" memoriy yodgorligi misolida).

1875 yilda Rossiya hali Andijonni bosib olmasdan bir yil avval bu shaharda mavjud bo'lgan madrasa va maktablar haqida ma'lumotlar to'plangan. Mana o'sha vaqt ma'lumoti: **1875 yilda Andijonda (viloyat bo'yicha):**

1. Madrasalar - 30 ta talabalar soni - 996 kishi.
2. Masjidlar - shaharda 213ta, uezdda - 709 ta.
3. Maktablar - 428 ta o'quvchilar 6756 kishi.
4. Qorixonalar - 440 ta qorilar 320 kishi.

Ushbu materiallar Andijonni qanday maskan bo'lganligini aniq ko'rsatib turibdi, shaharda aholining deyarli ko'pchiligi savodli bo'lganligini isbotidir.

Madrasalarning mavqe'i va farqi vaqf mulkining miqdori, daromadi, hamda hujralarning soni bilan ham belgilangan:

YIRIK MADRASALAR: vaqfdan tushgan yillik daromad 40000-250 tangani tashkil etadi. 300 dan 100 tagacha hujrasi bor. Mudarrislar soni 5 tadan 10 tagacha. Talabalar soni 150 dan ortiq, ba'zi hollarda mingtagacha boradi. Masalan, Buxorodagi "Ma'sudiya" madrasasining 1000 ta talabasi bo'lgan. O'quv ishlari tepasida a'lam, mufti va katta mudarris turgan. Asosan yirik poytaxt shaharlarda joylashgan.

O'RTA MADRASALAR: vaqf mulkidan tushadigan yillik daromad 120 dan 3500 tanga yoki 1800-5250 rublni tashkil etadi. Hujralar soni 30 tadan ortiq. Talabalar soni 50 tadan 150 tagacha. Mudarrislar 2-4 kishidan iborat. O'quv ishlari

tepasida mufti va katta mudarris turgan. Shaharlarda va qishloq markazlarida keng tarqalgan.¹

KICHIK MADRASALAR: vaqfdan tushadigan 5000 tanga atrofida. Shu sababli talabalar va mudarrislar soni kam, hujralar ham 15-20 tadan oshmaydi. O'quv ishlarini mudarrisning o'zi boshqaradi. Asosan qishloqlarda ko'p uchraydi.

Vaqf arab tilidan olingan. Musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan din va xayrli maqsadlar yo'lida ajratilgan har qanday mol-mulk, shu jumladan yer-suvlar ham. Musulmon ruhoniylar nufuzining iqtisodiy asosini tashkil etgan. O'rta Osiyoda mulkni vaqf uchun hadya etish, odatda, qozi huzurida vaqfnoma bilan rasmiylashtirilgan. O'zbekistonda vaqf asosan 20-yillarda tugatildi. Ba'zi musulmon Sharq mamlakatlarida hozir ham vaqf mulki mavjud.²

Turkistonning barcha shahar va qishloqlarida madrasalar keng yoylib, ularni qurdirgan va mablag' bilan taminlab turgan kishilarga karab uch toifaga bo'lish mumkun.³

1. **XON MADRASALAR:** xon, uning oila a'zolariga, saroy amaldorlari tomonidan qurdirilgan yirik madrasalar. Asosan poytaxt bo'lgan shaharlarda qurilgan. Vaqf mulki va daromadi katta bo'lganligi uchun talablar soni ko'p. Masalan: Samarqanddagi 1525-yili Shayboniixonning o'g'li Mahammad Temurxonning xotini Maxdiulyo xonim qurdirgan Shayboniixon madrasasi, Toshkentda 1550 yillarda Buxoro amiri Baroqxon qurdirgan Madrasa, Qo'qonda 1858 yili Xudayorxon tomonidan qurdirilgan "Ali" madrasasi va h.z.⁴

2. **ESHON MADRASALAR:** islom dinidas tasavvuf tariqatining diniy rahnamolar eshonlar, pirlar, shayxlar tomonidan qurdirgan katta madrasalar. Bu madrasalar eshonlarning muridlaridan tushgan hayr-ehsonlari va ularning mehnati bilan qurilgan. Yirik vaqf mulki va daromadiga ega. Masalan: Toshkentdagi 1458 yili Xo'ja Axror Valiy qurdirgan "Xo'ja Axror" madrasasi, 1855 yili Naqshbandiya tariqatining shayxi Abdulqosim qurdirgan "Abdulqosim eshon" madrasasi,

¹ Shamsutdinov R, Rasulov B. Turkiston maktabi va madrasalari tarixi. Andijon.:1995-yil,146-bet

² Ensiklopedik lug'at, O'z.S.E, 1988-yil, 147-bet.

³ Shamsutdinov R, Rasulov B. Turkiston maktabi va madrasalari tarixi. Andijon.:1995-yil,146-bet

⁴ Baroqxon madrasasi- hozir bu yerda Movoraunnahr musulmonlari diniy boshqarmasi joylashgan

Andijonda 1841 yili Xafa Aziz eshon tomonidan qurdirilgan "Xalif Aziz" madrasasi. Qo'qondagi 1801 yili Xasanxo'ja Eshon o'g'li tomonidan kurdirilgan "Buzrukxo'ja Eshon" madrasasi.

3. XUSUSIY MADRASALAR: juda ko'pchilikni tashkil etadi. Yirik yer egalari boylar, savdogarlar va boshqa badavlat kishilarning boshchiligida qurilgan madrasalar. Ko'proq hashar yo'li bilan, savobi tegishi uchun, obro' orttirish, yashi nom qoldirish uchun qurilgan.

Xonlar, eshonlar tomonidan qurdirilgan madrasalar tabiiy ofatlar: zilzila, suv toshqini, yong'in bo'lish oqibatlarida, urushlar natijasida va boshqa sabablarga ko'ra shikast etgan yoki vayron bo'lgan hollarda xususiy kishilar tomonidan qayta tiklangan holatlar ko'p bo'lgan. Andijon Jome' madrasasi ham bundan mustasno emas.

Jome madrasasi o'rni va atrofida besh asr mobaynida yetti marta qurilish bo'lgan va Jome eng so'ngisi ekani haqida xalq orasida xabarlar saqlangan.¹Afsuski, xammasining tarixini tiklash imkoniyati yo'q.. XV asrning II yarmida (taxminan 1463yili) Farg'ona hukmdori temuriy shaxzoda, Boburning otasi, Umarshayx Mirzo Andijonni poytaxt etib, bu yerda ilk marotaba Jome madrasasini bunyod etishgan.² Madrasa taxt uchun olib borilgan urushlar oqibatida qattiq shikastlangan.

XVIII asrdagi eng yirik qurilishlardan biri "Nomozgox" yoki Katta Madrasa edi.³ Uning maydoni, xotiralarda yoritilishicha, 30-40 tanob (yoki 5-6,5 gektar) ga teng bo'lgan. Xonaqosi Hozirgi Jome minorasi atrofida, masjid darvozasi esa esa sobiq viloyat arxivi (ya'ni "Chinortagi" masjidi) binosiga yaqin bo'lgan. "Nomozgox" masjidi 100 yildan ortiqroq saqlangan va XIX asr boshlarida bo'lgan zilzilada qattiq shikastlangan va buzilib ketgan. Keyinchalik Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li Nasiriddinbek Andijon hokimi etib tayinlangandan so'ng uning o'rnida 25 hujrali, darsxona va masjididan iborat Madrasa binosini pishiq

¹Jalilov S. Andijon, Toshkent., "O'zbekiston", 1989-yil, B.54.

²Ардашеров А. Замечательный памятник архитектуры" Андижанской правда. Т.,1 СПб. 1914 г.СТР.330.

³ "Boburnoma"da ham Namozgoh masjidi tilga olingan. Ammo, u qorg'on tashqarisida bo'lgan, 1680-yildagi zilzilada buzilib o'rniga shahar qo'rg'oni ichiga shu nomli yangi masjid qurilgan.(Писарчик. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы. СТР.164.

g'isht bilan qayta tiklangan. Nasriddindek Jome madrasasi nomini o'zgartirmagan bo'lsa ham u xalq orasida "Nasiriddinbek madrasasi" nomida yuritilgan.¹

Rossiya O'rta Osiyoni bosib olishi bilan Qo'qon xonligi ham tugatildi. Farg'ona vodiysida tartib o'rnatish bahonasi bilan polkovnik Serebryannikovning jazo bo'linmalari yuboriladi. 1876 yilning 8 yanvar kuni ertalab 9.30 da Chor hukumat soldatlari Andijonni zambaraklar bilan o'qqa tutib, so'ng uni egallaydilar.

Rus qo'shinlari shahardagi Nasriddinbek O'rdasiga va yonidagi Jome masjidiga o'rnashdilar.

O'rda yaqinida joylashgan masjidi Jome urush paytida to'p o'qi tegib bir qismi vayron bo'lgan bo'lsa ham uni ruslar egallab askarlari turadigan va aslaxasi saqlanadigan pixotasi bor joyga aylantirildi.

Ruslar bu yerga yog'och va taxtadan butxona, o'zlari uchun yotoqxona va otxonalar qurishadi. Bu ishlarni ko'rgan Andijonlik Islom ulamolari va badavlat kishilar to'planib, gubernatorga, "Bu yerlar vaqf joyi, biz bu yerda madrasa quramiz", - deb askarlarni janubga chiqarishlarini so'rab arz qiladilar. (O'sha vaqtlarda hozirgi "osma ko'prik"ning yuqorisi, janub tomoni bog'lar va uzumzorlardan iborat edi).

Masjid joyda yashovchi imom hatib va mullavachalar haydab chiqarilgan edi. Oradan ikki yilcha vaqt o'tib, zamona tinchib, yerli amaldorlar bilan rus ma'muriyati sekin - asta til topa boshladi. Mahalliy beklardan Orziqulbek va boshqalar ruslarga xizmat qilish yo'llarini qidira boshladilar. Bu kishilarning harakatini kuzatib turgan shaharning ulamolari ham ularning izidan borib, O'rda yaqinidagi masjidni bo'shatib berishlarini so'raydilar. Ammo ularni talabi harbiy ma'muriyat qarshiligiga uchraydi.

Bir qancha vaqtlardan so'ng Rus hokimlar shaharda yashovchi musulmon ulamolari bilan aloqani mustahkamlash bahonasi bilan ular so'ragan eski masjidni bo'shatib berish to'g'risida 1882- yil Andijon uezdi nachalnigi podpolkovnik Smirnov tomonidan rasmiy xat tashkil qilinadi. Bu xatga Otabek qozi, mullo Mirzo

¹ Shamsutdinov R, Rasulov B. Turkiston maktabi va madrasalari tarixi. Andijon.:1995-yil,-B.146

Qosim a'lam, mullo Rustam qozi, mullo Ro'zibek oxun kabi ulug' kishilar qo'l qo'ygan edilar.

Xuddi shu yil podpolkovnik Smirnov taqdimiga ko'ra va yerli nufuzli kishilarning so'roviga muvofiq Nasridinbek o'rdasiga yaqinda joylashgan masjidni rus qo'shinlarini olib chiqib ketgandan so'ng bo'shatib berildi. Ammo bu buzilib ketgan eski o'rda va masjid o'rnini rus askarlari bilan band bo'lganligini sabab qilinib general-gubernator mullolar boshqa yerga masjid qurib olsinlar deb farmon qiladi. Shunda podpolkovnik Smirnov bu so'zni mullolarga etkazadi. Ular yana Smirnovga murojat qilib masjid qurish uchun joy ko'rsatib berishlarini so'radilar. Smirnov esa xohlagan yeringizni tanlab madrasa quraveringlar, men qurilish hozirligi bitganda borib ko'raman deydi. Mullolar maslahatlashib Nasridinbek madrasasi turgan joyni tanlab o'sha joy yaqinidan Ayimxon bibi Iso Dotxox qiziga qarashli joyni 100 tilloga sotib oladilar. Mullo Islom sarkarboshi qo'lida buni tasdiqlovchi hujjat ham borligi tasdiqlandi.

Nasridinbek madrasasi rus qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilingan bo'lib ular bu madrasani bo'shatib chiqishlari oldidan uni buzib g'ishti va yog'ochlarini olib ketdilar. Ular O'rdani ham huddi shunday qilib buzib tashlagan edilar.

1880-yilda general Chernyaev Andijonga kelgan paytda O'rda va masjid binosi vayrona bo'lib turdi. Maxalliy kishilar general Chernchevga o'rda va masjid vayronasi hozir ham xalq uchun **iydgox - ya'ni ommaviy nomoz o'qiydigan joy** bo'lib xizmat qilishini tushuntirdilar. General Chernyaev aholining iltimosini inobatga olib mahalliy pristav Oraqulovga (U o'sha paytda prostav lavozimini vaqtinchalik bajarib turardi. M. A.) o'rdani va Nasridinbek madrasasini buzib tashlagan o'rniga aholi tomonidan ko'p iltimoslar bilan askarlardan bo'shatilgan vaqf joyda yangi madrasa qurilishiga ijozat berildi.¹

Rus qo'shinlari Andijon "qal'a"siga ko'chib ketayotganlarida madrasa binosining yog'och va g'ishtlarini o'zlari bilan olib ketib, uning o'rnida yuqorida aytib o'tilganidek xaroba qoldirgandilar. 1882-yili bu xaroba o'rnida Xakanlik savdogar boy Muxammadaliboy Ahmadaliboy o'g'li Xolmirzaboev keng xalq

¹Jalilov S. Andijon, Toshkent., "O'zbekiston", 1989-yil, B.55.

ommasining ishtirokida Turkiston general-gubernatorining 1882-yil 22- iyun kunida berilgan 4225 raqamlik ruxsati bilan yangi madrasa binosini barpo ettira boshladi.

Jome madrasasi qurilishining homiysi haqida to'xtaladigan bo'lsak.

Sayfiddin xoji Jalilovning "Andijon" deb nomlanuvchi kitobida va Jome madrasasi haqidagi maqolalarida bu inson "Mahmudaliboy" deb ta'riflanadi. Shu bilan birga Baxtiyor Rasulovning "Turkiston maktab va madrasalar tarixi", Usmonjon Shukurovning "Boburmirzo sevgan qishloq" kitoblarida ham bu inson "Mahmudaliboy"ligi aytiladi. Xalq orasida esa u "Mamtaliboy" nomi bilan shuxrat topgan. Uning avlodlaridan biri shaharning Bo'ston daxasida istiqomat qiluvchi Yusupov Xoldarvoyning aytishicha uning asl ismi "Muxammadaliboy" bo'lgan.

Sayfiddin xoji Jalilovning ta'riflashicha bu inson Umarxon kanizagining farzandi bo'lgan.

Rivoyatga qaraganda: 1814-15 yillari Zarkent va Nanay tomonlarda dam olayotgan Qo'qon xoni amir Umarxon markazga - Qo'qonga qaytishida, Andijon shahri orqali yuradi va shaharga kirmay xazinachisi Mulla Qosim Mahdum maslahati bilan Xakan qishlog'idagi Axmadali ismli o'ziga tinch keng hovli-joyli va bog'-rog'li badavlat aravakash sovdogarnikida o'z mulozimlari bilan bir kecha mehmon bo'lib qoladi.

Ertalab xon uy egasiga minnatdorchilik bildirib, qilgan xizmatlari evaziga bir xaltacha oltin tanga beradi. So'ng Axmadaliga: "Kanizalarimdan birining tobi qochib qolibdi, uni senikida qoldiraman, tuzalib ketsa o'zinga nikox qilib olarsan, agar qazosi yetsa dafn qilarsan"—deb, bo'lajak xarajatlar uchun yana bir xaltacha tilla beradi.

Oradan vaqtlar o'tib kanizak tuzaladi va uni Axmadali o'ziga nikoxlab oladi. Shu kanizakdan xotiralarda aytilishicha, bir o'g'il va ikki qiz dunyoga keladi. O'g'liga Maxmudali deya ism qo'yadi. Qizlari katta bo'lgach birini So'fi qishloqqa, yana birini Marg'ilonga uzatadi.¹

¹ Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi -9023 raqamli fond .

Mamtaliboyning yuqorida aytib oʻtilgan avlodi Yusupov Xoldarvoyning hikoya qilishicha: mashhur Nodirabeginning oʻgʻli Muxammadalixon taxtga oʻtirgan davrdan (1822) maʼlum yillar oʻtgach, Qoʻqon xonligiga Buxoro amiri Nasrulloxon yurish boshlaydi. Va butun xon avlodlarini qirib tashlaydi. Shu vaqtda taqdir taqozosi bilan Qoʻqonga Andijonlik savdogar aravakash Xolmirza degan kishi borib qoladi. Uning aravalaridan biriga nimanidir ortib berishadi va "Andijonga borgungacha ochmang" deb undan iltimos qilishadi. Pekin aravalar karvoni Shaxrixonga kelganda dam olish uchun toʻxtaydi. Birdan bir arava ichidan qandaydir ovoz eshtiladi. Karvonboshi "Naxotki men nima olib ketayotganligimni ham bilmasam?" deb oʻylab oʻsha aravadagi yuklarga qarasaki, arava tilla va tilla buyumlar bilan liq toʻla. Arava oʻrtasida esa bir qiz oʻtiribdi. Aravakash uni koʻrgan zaxoti muhabbat hislari uygʻonib, unga koʻngil qoʻyadi. Va "siz kimsiz?" deb soʻraydi, qiz javob beradi: "Men Muxammadalixonning ayollaridanman. Ularning barchasini Nasrulloxon jallod qatl qilib boʻldi. Faqat men qutilib qoldim. Xohlasangiz meni qiz qilib boqing, xohlasangiz axli ayolingiz boʻlib xizimatingizni qilay". Aravakash Xolmirza uni Andijonga olib keladi va toʻy qilib unga uylanadi. Tez orada aravadagi tillalar xisobiga boyib ketadi, uni xalq oddiy aravakash Xolmirza emas, "Xolmirzaboy" deb atay boshlaydi. Muxammadalixonning sobiq bu ayoli (ismi nomaʼlum) Xolmirzaboy nikoxiga oʻtganda 6 oylik xomilasi bor edi. Oy kuni yetib bola tugʻilgandan soʻng otaning ismi yoʻq boʻlib ketmasin deb unga Muhamadali deb ism qoʻyishadi.

Muxammadaliboy imonli, halol pok, oqkoʻngil inson edi. U insonlarni boymi kambagʻalimi, yuqori tabaqa vakilimi, past tabaqa vakilimi bir xilda munosabatda boʻlar edi.

Viloyat Oʻlkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi Abduraxmanov Muxammadning rivoyati oʻzgacha talqinda: eng soʻngi Qoʻqon xoni Xudoyorxon, Andijonlik aravakash Xolmirza degan kishini uyida bir kecha tunab qoladi. Aravakashni balogʻat yoshiga etgan, juda goʻzal, odob-ahloqli qizi boʻladi. Shu kecha xon shu qiz bilan birga boʻladi. Vaqtlar oʻtib aravakash qizi oʻgʻil farzandli boʻladi. Unga Muxammadali deb ism qoʻyishadi.

Yuqorida ta'kidlangan "Boburmirzo sevgan qishloq" kitobining muallifi Usmonjon Shukurov esa Mamtaliboyni Nodirabegimning o'g'li Muxammadalixon kanizagidan deb ta'rif beradi.

Uning ta'rifiga ko'ra: 1842- yilning yoz oylarida Qo'qon xoni Muhammadalixon onasi bo'lmish Nodira-Mohlaroyim sharafiga otasi Amir Umarxon tomonidan bunyod etilgan hozirgi Oyim qishlog'iga dam olgani keladi. Shu davrlarda Qo'qon xonligiga Buxoro Amiri Nasrulloxon to'satdan yurish qilib qoladi. Bu noxushlikdan xabar topgan Muxammadalixon zudlik bilan Qo'qonga qaytish taraddudini ko'ra boshlaydi. Namozi asrda ular Andijonga yaqinlashadilar. Ularga Hakanlik Ahmadaliboyning eng sodiq karvonboshisi Sodiqbek va yana bir suvoriy peshvoz chiqadi. Va ularni Ahmadaliboy uyiga mehmonga chorlayotganini aytadilar.

... Xon karvoni yo'lini Hakanga qarab buradi.

Muxammadalixon Ahmadaliboy hovlisida bir kecha mexmon bo'ladi. Ertasi ertalab Qo'qonga shoshib jo'nab ketadi. U Oyimdan kelayotganda bir kanizi betob edi. Ahmadaliboyning odamoxunligi, mehr muruvvati va sadoqatidan ko'ngli to'lgan xon bemor kanizini boynikida qolirishga qaror qiladi.

- Shu bemorni xonadoningizda qoldiraman, - dedi u. Qarab davolang. Allox shifo bersa, zora. Bizdan uch oy mobaynida biror xabar kelmasa yo biror kishini yubormasak, bemor sog'ayib ketsa, siz u kishini o'z nikohingizga olib, tarbiya qiling.

... Xon jo'nab ketadi. Boy kanizni eng bilimli tabiblarga qaratib davolatadi. Kaniz shifo topadi. U boy xonadonining eng hurmatli a'zolaridan biri sifatida yashay boshlaydi. Kunlar o'tdi. Hademay xon aytgan muxlat-3 oy o'tib ketdi. Orada Buxoro xoni Qo'qon ustiga yurish qildi. Notinchlik natijasida ko'p musibatlar, xunrezliklar yuz berdi. Hakanga kanizni yo'qlab xon o'rdasidan xech qanday xabar bo'lmadi. Xonning bergan roziligiga ko'ra, Ahmadaliboy sog'ayib, oyoqqa turgan kanizni o'z nikoxiga oldi...

Ahmadaliboy, ittifoqo, o'z nikohiga olgan kanizdan vaqti-soati yetib o'g'il ko'radi. O'g'liga Mahmudali deb ism qo'yadilar. Mahmudali jonli tilda o'zgarib Mamtaliboy deb atala boshlagan.

Bundan tashqari xalq orasida u Mamtaliboy ismi bilan shuxrat topgan va ko'plab afsona va rivoyatlar asosida o'zgacha ta'riflanadi. Ba'zi afsonalarda ham uni so'nggi Qo'qon xoni Xudoyorxon avlodlariga bog'lasa, ba'zilar buni inkor qiladi va shunchaki nufuzli boylardan bo'lgan xolos deb ta'kidlaydi.

Ho'sh Mamtaliboy kimning mablag'i asosida va qay tariqa 14 tanob (2,5 gektar)li Jome madrasasini qurdirishga muvofiq bo'ldi?

Sayfiddin xoji Jalilovning yuqorida keltirilgan rivoyatining ma'lumot berishicha: O'sha oqshom xazinachi Mulla Solix Maxdum do'sti Axmadaliga: "Men xon bilan birga ketaman, jamg'argan oltin pullarimdan senga tashlab ketmoqchiman, sen biror savobli ishga sarf qilarsan, karvon saroyi madrasami qurdirarsan, senga omonat ", deb bir sanoch oltin pul qoldiradi. Ahmadali katta sanochdagi oltinlarni mavrudi kelganda ishlatish uchun ko'mib qo'yadi.

Mahmudali otasi bilan birga ham aravakashlik, ham savdo ishlari bilan shug'ullanadi. Kunlarning birida betob bo'lib kolgan Ahmadali o'g'lini yoniga chaqirib deydi:

"Sen men qila olmagan bir omonat ishni bajarasan, hovlidagi yong'oqdan kun botishga qarab yetti qadam o'lchab kovlasang, bir sanochda oltin chiqadi, u menga ham senga ham omonat, hazrati Umarxonning xazinachisi qoldirgan. Endi sen shu omonatni savobli ishga sarflaysan ". Bu Ahmadalining o'g'liga vasiyati edi.

Xalq orasidagi ko'plab rivoyatlar mavjud. Ularning birida ta'kidlanishicha Mamtaliboyning bir xumi bo'lib, bu xumda tillalar mavjud bo'ladi. Kundalik hayotida shu xumdagi tillalar hisobiga kun ko'radi. Lekin ertalab turib qarasa xum yana tilla bilan liq to'la bo'lib qolar ekan.

Mamtaliboyning qo'l ostida ko'plab xizmatchilar mavjud bo'lib, shulardan biri xech tahorat olmas edi. Yoki boshqacha qilib aytganda shu insonni tohorat olganini Mamtaliboy hech ko'rmagan ekan. Bir kuni boy o'sha insonni oldiga chaqirtirib undan so'raydi. "Birodar sizning tahorat qilganingizni hech

koʻrmadim". Xizmatchi javob beradi. "Ey boy butun umrga yetmaydigan tahorat tahoratmi". Shu kundan boshlab xumdagi tillalar kamaya boshlaydi.

Tez kunlar davomida u madrasa qurilishiga kirishadi. Sababi "butun umrga yetmaydigan tahorat tahoratmi" soʻzlari ostida xizmatchi, "shuncha mol-dunyoying boʻla turib, bu boylikni Alloh taolo, yaʼni din yoʻlida sarflamasang bu boylik boylikmi" deb aytgan boʻladi.

Yana bir rivoyatda: Mamtaliboy karvoni Oʻzgandan Andijonga qaytishda Kampirovotda, Qoradaryodan oʻtish joyida bir qariyaga duch keladi. Qariya karvon boshidagilarga aravalarida daryodan oʻtqazib qoʻyishlarini iltimos qiladi.

Aravakashlar negadir u ni oʻz aravalariga olishmaydi.¹

- Ancha yoʻldan kelyapmiz. Manzil hali uzoq otlar charchaydi, - deyishadi ular. Navbat Mamtaliboyga yetib keldi. Karvonning oxiri, oʻtish va manzilga yetish kerak. Vaqt kech boʻlyapti. Qariya boyga ham iltimos qildi. Mamtaliboy qariyani koʻradi-da, otdan tushadi. Soʻzini diqqat bilan tinglaydi...

Oʻzi yordamlashib aravaga chiqarib oladi. Ular daryodan oʻtishadi. Ammo qariya aravadan tushay demaydi. Boy ham soʻramaydi. Ancha yoʻl bosishgandan soʻng boy qariya bilan suhbatlashish maqsadida unga gapiradi. Lekin hech qanday javob qaytmaydi. Shunda boy orqasiga yuzlanadi. Qarasaki hech kim yoʻq. Mamtaliboy ming xayollar bilan ortiga qaytadi. "Nahotki aravadan tushib qolgan boʻlsa, lekin men hech nima eshitmadim-ku?! Oʻyga tolib qolgan boʻlsam kerak. Savob ish qilaman deb gunoxga qoladigan boʻldim". Boy Qoradaryodan oʻtish joyigacha, yaʼni qariyani olgan joygacha ancha yoʻl bosib boradi. Lekin qariyadan darak yoʻq. Mataliboy aravalarda don-dun olib ketayotgan ekan. Bir vaqt qoplarning biri ochiq va bir qancha don toʻkilib yotibdi. Boy uni bogʻlab qoʻyish maqsadida yaqinroq boradi, qarasaki qopdagi don oltinga aylanib qolgan ekan. Qoplarni zudlik bilan uyga olib kelib chinor daraxtidan yasalgan kattakon sandikka solib qoʻyibdi.

Rivoyat qilishlaricha qadimda odamlar oʻz taqinchoqlarini, tillolarini chinor daraxtlaridan yasalgan sandiq yoki qutichalarda saqlar ekanlar. Sababi

¹ Andijon viloyati Adabiyot va sanʼat muzeyi- 9023 raqamli fond

chinor achchiq, yong‘oq esa o‘ta hidli daraxtlar. Ularga sichqon, kalamush va har xil qurt-qumursqalar zarar yetkazmas ekan. Boy ham shuning uchun shu ishni qilgan bo‘lsa kerak.

Jome madrasasini qurilishi uchun ketadigan harajatlarni ham shu tillalar hisobidan ishlatgan ekan.

Katta Farg‘ona kanali qurilish paytida -1939 yili arxeologik tadqiqotlar olib borgan taniqli olim M.E.Masson ham Andijondan moddiy madaniyat namunalarini topgan. XX asrning boshida qurilgan Jome masjid-madrasa majmuasi Farg‘ona vodiysida yagona mahobatli inshoot ekanligini hamda madrasa va minora hududida XII asr oxiri- XIV asr boshlariga mansub o‘yma g‘ishtlar bilan qoplangan bino mavjud bo‘lganligini isbotlab bergan.¹

Og‘zaki hikoyalarda aytilishicha "Madrasani kim quradi?" degan savol o‘rtaga tashlangan va kelasi juma nomozgacha maslahatlashish e‘lon qilingan. Bu xabar Xakan qishlog‘iga, aravakash-savdogar Maxmudali boyga ham borib yetgan.

O‘sha paytda 58 yoshga kirgan aravakash-savdogar Mahmudaliboy otasi vasiyat qilgan oltinni sarflash va savobli ishni amalga oshirish vaqti kelganini bilib, juma kuni shaharga tushadi. Namoz o‘qib bo‘lgach, yana madrasa qurish masalasi ko‘tarilganida Mahmudaliboy "Agar ijozat bersanglar, shu madrasani men qursam"— deydi.

G‘ala-g‘ovur bosilgach, Andijonning katta ulamolari va qozikalonlari maslahatlashib, bo‘lg‘usi Jome madrasasi qurilishini Xakanlik aravakash savdogar Mahmudaliboyga ishonib topshiradilar. Haloyiq unga oq fotiha beradi.

Mahmudaliboy uyga borib otasi aytib ketgan joyni kovlab oltin to‘la sanochni oladi va tunda arava qurilish maydoniga tutash karvon saroyga keladi. Saroyning bir xonasiga joylashib uni go‘yo o‘ziga shtab qilib oladi va shu yerdan qurilishga boshchilik qiladi.

¹ Mashrapov Z., Jalilov S., Matboboyev B. Ko‘hna Andijonning IX-XV asrlardagi ma‘naviy-ma‘rifiy obidalari, "Andijonnoma" 2015-yil, 11-aprel, №-33 son, B.2.

Aytishlaricha, Mahmudaliboy kamgap, xonanishin odam bo'lgan. Saroyda xonasidan chiqmay nuqul archadan tish kovlagich yo'nib o'tirardi va qishin-yozin o'choq oldidan ketmaydi.

Viloyat o'lkashunoslik muzeyi xodimi Muxammadjon Abduraxmanovning rivoyati quyidagicha: Muhammadaliboyga kattagina meros qolgan bo'lib, bu mablag' hisobiga Madrasa qurdirish orzusida yurgan bo'ladi. Shu davrlarda Jome madrasasi o'rnida rus askarxona (kazarma)si joylashgan bo'ladi.

Mahmudaliboy o'sha davrdagi general-gubernatorga 16 ta xat yozadi. Har safar boylar Nomozgoh masjidini tiklash haqida bo'ladigan majlisga yig'ilishar, lekin har safar madrasaga ketadigan mablag' haqida ketsa hech birlari aniq fikrga kela olmas edilar.

Andijon Jome madrasasi 1882-1892 yillarda ya'ni 10 yil davomida sobiq "Nomozgoh" masjidi o'rnida qurilishi bo'lib o'tdi.¹ Ba'zi rivoyatlarda qurilish bir necha yillardan so'ng to'htab qolib, mahalliy boylar o'z mablag'lariga qurilishni yana davom ettirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Jome madrasasiga Andijonning o'sha davrdagi eng nufuzli boylaridan bo'lgan Mamtaliboy "boni" bo'lgan (ya'ni ishga boshchilik qilgan). Rivoyat qilishlaricha: Mamtaliboy shahar boylari bilan yig'ilib o'tirganida, boylar "Ha boy hujra qurdirayapsizmi?" deb kamsitkanday qilishganda boy "Yo'q men madrasa qurdirayapman", deb javob bergan ekan. Bu javobni eshitgan boylar kulib yuborishgan ekanlar va ertasi kuni ataylab qurilish ketayotgan joyga borishibdi. Qarashsaki xaqiqatdan ham bu yerda 14 tanob (2,5gektar)li madrasa qurilishi ketayotgan ekan. Ma'lumotlarga qaraganda madrasaga ketadigan g'ishtlarni 6 yil davomida suvda saqlagan ekanlar. Parchalanib ketmaganlari va bo'linmaganlaridan Jomeni qurishgan ekanlar.²

Qurilishga juda ko'plab ustalar taklif qilinadi. Ular ichida Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasini, Paxtobod tumani Madaniyat daxasida joylashgan Otaqo'zi madrasasini qurilishi muallifi usta Qirg'iz, usta Mamadboy, o'z davrining yana bir ustalaridan biri usta Muhammad Aminxo'ja va shu bilan birga usta Musaxon va

¹ Азимов И. Архитектурны памятники Фергаской долины. Ташкент., "Узбекистан". 1982-г.Ст.51

² Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi- 9023 raqamli fond .

usta Isaxonlar ham bu mo‘tabar joyning qurilishiga o‘zlarining qurilish loyixalari bilan ishtirok qiladilar va ularning loyixasi Mamtaliboyga yoqadi va qurilishni ularga topshiradi. Shunday o‘z davrining eng mohir usta me‘morlaridan bo‘lgan usta Musaxon va usta Isaxonlar (15-16 yashar Yusuf Ali ham qurilishda ishtirok etgan) tomonidan qurilishga bosh qoshlik qilingan va qurilish asosan xalq kuchi, hashar yo‘li bilan davom etgan. Jome madrasasini qurish vaqtida "Nomozgox" masjidi va uning shimoli-sharqiy tomonlaridagi "Chinor oyim" madrasasi vayronalari buzilganda ganchdan ishlangan shakli shamoil sur‘atli bezak parchalari ko‘plab topilgan¹.

Sobiq "Nomozgox" masjidi xonaqosining orqa tomoni, xotiralarga qaraganda, "bir terak bo‘yicha" pastlik bo‘lgan. Shuning uchun bu eski masjid o‘rnidagi tuproqlar ikki oy davomida g‘arbgga tomon pastlikka surilib tekislangan. Shunda ham sharqiy tomon baland bo‘lib, quruvchi ustalar bu farqni 22 qator ortiqcha g‘isht terib chiqib to‘g‘rilashgan.

Usta Yusuf Ali Musaevning 1939-yilda yozib olgan xotirasiga qaraganda, Jomeni qurishda deyarli yangi g‘isht ishlatilmagan: shu joyda buzilgan va tuproq ostida qolib ketgan eski inshootlarning g‘ishtlari kifoya qilgan.²

Rivoyat qilishlaricha Mamtaliboy ilk g‘ishtni halol pok inson qo‘yib bersin debdi. Shunda Markaziy Osiyoda tanilgan boylardan Mirkomilboy shu ishni bajarishga izn so‘raydi, lekin Mamtaliboy uning iltimosini rad etadi. Ba’zi rivoyatlarda unga yosh chaqaloqni olib kelishadi va boy shu chaqaloqning jajji qo‘lchalari bilan ilk g‘ishtni qo‘ygan deyilgan bo‘lsa, boyning yuqorida aytib o‘tilgan avlodi Yusupov Xoldarvoy va boshqa ko‘plab insonlarni ta’kidlashicha xalq orasidan xadeganda hech kim chiqmagandan so‘ng boy "Bo‘lmasam o‘zimiz ilk g‘ishtni qo‘yamiz ekanda" deb, to‘nining orqasini bog‘lab (boshqa rivoyatlarda yechib qo‘yib) Jome madrasasining birinchi g‘ishtini qo‘ygan ekan. Madrasa to‘rtburchak shaklda qurilgan bo‘lib bu shakl VII-VIII asrlarda islom mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Ilk xolatda 4 tomonidan serustun uzun ravoqlar

¹ Азимов И. Архитектурны памятники Фергаской долины. Ташкент., "Узбекистан". 1982-г. Ст.53

² Abduraimov Q. Andijon me‘morlarining sardori, // "Vodiy gavhari", 2015-yil, 19-fevral, № 8, B.30.

o‘ragan, o‘rtada xonaqohi bo‘lgan. Keyinchalik turli mamlakatlarda mahalliy binokorlik an‘analari ta‘sirida masjid binolarining har xil namunalari shakllangan; xususan, O‘rta Osiyoda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi hovlisining atrofida ayvonlari, oldida ulkan peshtoqi bo‘lgan masjidlar qurilgan.[masalan Buxorodagi Masjidi kalon XII asr (Poykalon)].

Jomeining g‘arb tomoniga uzun xonaqoh va oldiga 3 qatordan qo‘yilgan 54 ustunli uzun ayvon qurildi.

Ko‘plab madrasalarda bo‘lgani kabi Jome madrasasining ham to‘rtala burchagida va asosiy kirish darvozasiining yuqori qismida bitta hammasi bo‘lib beshta gumbazi mavjud bo‘lgan. Lekin beshinchi, darvozasiining yuqori qismidagi darsxona 1902 yildagi zilziladan so‘ng butunlay qulab tushgan va uni qayta tamirlashni ilojisi bo‘lmagan. Gumbazlar asosan darsxonalar vazifasini o‘taganlar. Gumbazlar (arxitekturada), fazoviy konstruksiya bo‘lib, binolarning geometrik jihatdan qabariq sirt shaklida bo‘lgan tomi yoki yuqori qismi Markaziy Osiyo arxitekturasida binolar o‘z vazifasi va turiga qarab charxi (katta binolar; gumbazi baland radiusiga deyarli teng), balxi (past tomli binolar), chortak (to‘g‘ri to‘rt to‘rtburchakli kichik xonalar) va boshqa gumbazlar bilan yopilgan. Ular tosh, gisht va yog‘ochdan ishlangan; hozirgi zamon qurilishida tosh, temir beton, po‘latdan foydalaniladi.

Rivoyat qilishlaricha Jome to‘rt yillik o‘quv yurt bo‘lib, o‘qish asosan shartnoma (kantrakt) asosida olib borilgan. Bundan tashqari mahaliy amaldorlar har xayit va boshqa bayramlarda madrasa va madrasa talabalariga ko‘plar sovg‘a salomlar berib turganlar. O‘qish pullik bo‘lishiga qaramasdan tabaqaviylik yo‘q edi. 85 yoshli Andijon shahri Shahrixon ko‘chasida yashovchi Solimjon ota Raximovning aytishicha madrasada boyning bolasi bilan bir qatorda oddiy dexqonning farzandi ham tahsil olavergan.

Jome’ madrasida muayyan 300, hammasi bo‘lib esa 1000 dan ortiq tolibi ilmlar tahsil olganlar. Ular gumbazlarni auditoriya sifatida foydalanganlar. To‘rt tarafdagi gumbazlar umumiy darsxonalar bo‘lsa. darvozasiining yuqori qismidagi beshinchi darsxona asosan bitiruvchi yildagi talabalar uchun darsxona vazifasini

bajargan va bu erda diniy bilimlarga o'qitilgan xalos. Umuman olganda Jome'da diniy fanlardan tashqari tarix, falakiyot, falsafa, mantiq va shu kabi aniq va ijtimoiy gumanitar fanlar o'qitilgan.

Jome so'zi ham aslini olganda ikki turdagi ma'noni anglatib biri jamo'a ya'ni bino va inshootlarni jamo'a hashar yo'li va xayr ehsonlar orqali qurganligini bildirsa, ikkinchi ma'nosi esa jamlangan ya'ni masjid, Madrasa va minora mavjud bo'lgan joy (Jome) deb ataladi.¹

Masjid so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak: (masjid so'zi arab tilidan olingan bo'lib sajda qilinuvchi joy degan ma'noni anglatadi) Masjid islom olamida katta ahamiyat kasb etadi, uning dinimiz tarixida tutgan o'rni beqiyos. Masjidlar Alloh taolaga ibodat qilinadigan pokiza maskanlardir. Yer yuzidagi eng ulug', eng tabarruk ibodatxona -masjidlar Boytulloh (Allohnin uyi) deb yuritilishi bejiz emas.

Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marxamat etadi: **"Ollonin masjidlarini faqat Ollohga va oxirat kuniga imon keltirgan, namozni to'kiso etgan, zakotni (haqdorlarga) ato qilgan va yolg'iz Olloxdangina qo'rqadigan zotlarga obod qilurlar. Ana o'shalar hidoyat topguvchi zotlar bo'lsalar ajabmas"** (Tavba, 18-oyat mazmuni)²

Yana bir oyati karimda shunday deyilgan: **"Albatta (barcha) masjidlar Ollohnikidir. Bas, (masjidlarda) Olloh bilan birga yana biron kimsaga duo-iltijo kilmanglar!"** (Jin. 18-oyat mazmuni).³

Hadisi qudsida Alloh taolo aytadiki: "Erimdagi uylarim -masjidlarimdir. Undagi mening ziyoratchilarim masjidlarni obod qilguvchilardir".

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonlaridan buyon masjidlar islom dinining o'ziga xos ma'rifiy markazlariga aylandi. Ularda amri ma'ruf, nahiyy munkar, kishilarni hidoyatga chorlash hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek masjidlar musulmonlarning to'planib nomoz o'qiydigan muqaddas joyidir. Bu yerda, shuningdek, va'z aytiladi, diniy ilmlar

¹ Islom ensiklopediyasi, Toshkent: O'zME, 2004-yil, B.155.

² Mansur A. Qur'oni Karim, O'zbekcha izohli tarjima, Toshkent, "Cho'lpon", B.125.

³ O'sha manba, B. 466.

uqitiladi. Masjidlarda mehrob (diblani ko'rsatadi), azon aytish uchun minora, kutubxona va boshqalar bo'ladi.

Qadimda xar kandy binoning qurilishi shoirlarning ba'zi bir she'rlari orqali xam yoritilgani sir emas Jome madrasasi ham bundan mustasno emas albatta

Ikki darvozaxonasi bo'lib, sharqiysi bolodir.

Xujrasi yuz to'rt adadkim bir torof balo ediy,

Bir minora ayladi ul barchadin a'lo ediy.

Xamidiy.

Ushbu satrlarni aytib beruvchi Bobojon mullo Abdusattor bo'lib ul zotning adabiy taxallusi Shavqiy.

Ushbu satrlarni aytuvchilari Jome qurilishi haqida o'z xotiralarini aytdilar. Ular xaqiqiy tarixga biroz zid keladi. Aslini olganda Jome madrasasining har ikki tarafida bir qavatli, old tomonida esa ikki qavatli hujralar joylashgan bo'lib, umumiy hisobda madrasada 122 ta hujra mavjud bo'lgan.

Madrasa: (arabcha - "madrasatun" so'zidan olingan bo'lib, "maktab" degan ma'noni anglatadi). O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari va boshqa yerlarda o'rta va oliy musulmon maktabi hisoblanib, IX asrdan shakillana boshlagan. O'sha zamonlardan hozirgi kunlargacha ba'zi davlatlarida ruhoniylar, muallimlar, shuningdek davlat apparati uchun xizmatchilar tayyorlab kelmoqda. (masalan: hozirgi kunda Buxoroda ilohiyotdan o'rta ma'lumot beruvchi Mir Arab madrasasi.)¹

Har bir Jome madrasasida bo'lgani kabi, Andijon Jome madrasasida ham minora mavjud bo'lib, u baland inshootdir. Gorizontal o'lchamlari (diametri, poydevorining tomonlari)ga nisbatan vertikal o'lchami ortiq bo'lib, Madrasa, masjidlarda yoki ularning yonida asosan Jome' masjidlarining markazida joylashgan bo'ladi.

Obidani qurilishi tarixi bo'yicha minorada Andijonlik shoir Ojiz (Abbos Halfa)ning shunday ta'rifi bor.

Tarixi minor Mahmudi g'arib, Nasrul minAllohu va fatxi qarib.

¹ Islom ensiklopediyasi, Toshkent: O'zME, 2004-yil, B.177.

Abjad xisobida ... **"Qarib"** soʻzidan **1885-** yil sanasi kelib chiqadi.

Andijon Jome madrasasi minorasining balandligi taxminan 32,4 metrni tashkil qiladi. Lekin yuqorida aytib oʻtilganidek, har bir madrasada Minora qoida boʻyicha markazda joylashgan boʻlishi kerak. Ammo Jome madrasasida esa u honaqoxga yaqin joyda joylashgan. Bu holatni shoir va yozuvchi O. Xoldar quyidagi rivoyatga tayangan holatda taʼriflaydi. Tarixdan maʼlumki qadimdan Jome madrasasi oʻrnida bir necha bor masjid, madrasalarning qurilishlar boʻlib oʻtgan. Ularni har qaysinisining minorasi oʻsha minora oʻrnida joylashgan boʻlgan. Shuning uchun minora honaqoxga yaqin joyda qurilgan.

Shu yerda bir qiziq voqeaga toʻxtalsak. Maʼlumotlarga qaraganda Mamtaliboy, oʻsha oʻzi yoqtirgan loyixani general gubernator "janoblari"ga taqdim etganida general gubernator undan bu loyixani kim yaratdi?! deb soʻraganda Mamtaliboy javoban unga: "qarshingizda turgan ushbu loyixani maxalliy meʼmorlardan usta Muso va Isolar tomonidan chizildi", deb javob bergan ekan. Bu soʻzlardan dargʻazab boʻlgan general gubernator boyga javoban: "Men Chor hukumatining territoriyasida rus insonini ishtirokisiz yaratilgan, yani ruslarning qoʻli tegmagan xech nimani tan olmayman. Xususan siz qurdirayotgan oʻsha madrasani ham"! degan soʻzlarni aytadi. Bu soʻzlardan boyning jahli chiqadi. Lekin koʻp oʻtmay taqdirga tam bergan Mamtaliboyning iltimosiga koʻra Sank-Peterburk shaxridan arxitektor "Svirchevskiy" taklif qilinadi. U tashrifining asosiy maqsadi xisoblangan Jome madrasasi loyixasini bir muncha oʻzgartiriladi. Yaʼni Svirchevskiy madrasaning old tomonining ikkala tarafida joylashgan ulkan gumbazlarni qurdirtiradi, Madrasaning ichki tarafiga xovuz qazdiradi va oʻsha minorani 85 mertlik ayvonga ega boʻlgan hanaqox yoniga jildirtiradi.

Shu bilan Mamtaliboy ham general gubernator ham oʻz maqsadlariga yetishadi. Yaʼni general-gubernator madrasa qurilishiga rus meʼmori arxitektor Svirchevskiy ishtirokini taʼziqan qoʻsh tirgan boʻlsa Mamtaliboy esa Jome madrasasini qurdiradi.

Jome madrasasining minorasi balandligi 32 metr bo'lib, kuydirilgan g'ishtdan, sakkiz burchakli asosga qurilgan. Minoraning uchi gumbazsimon bo'lib, u yerda yoritkichlar joylashgan.¹

Jome madrasasidagi minora haqida xalq orasida ko'plab rivoyatlar uchraydi:

Rivoyatlardan birida ta'kidlanishicha minoraning asosidan to mezonasigacha bir odam g'isht irg'itib bergan ekan. Buni rivoyatni hozirda Bog'ishamol daxasida istiqomat qiluvchi 119 yoshli Asrorov Abdurauf ota ham tasdiqladi. Abdurauf otaning yoshi muborakligi tufayli uni shu yerdagi aholi Abdurauf qori dada deb atashar ekan. U 1895 -yilda Asror domla xonadonida tavallud topgan ekan. Asror domla o'ziga to'q, boy insonlardan bo'lib, ularning katta yer mulki bo'lganligi va ko'p Qur'on o'qiganligi sababli Abdurauf qori dadani 1914-15 yillarda, Andijonda bo'lib o'tgan "Saldat oldi" qo'zg'oloniga aloqadorlik baxonasida Sibirga surgun qilishgan ekan. U davrda Abdurauf qori dadani Andijonda ota-onasi, to'rt nafar aka-ukalari, oilasi va farzandlari qolgan ekan.

Surgundan 25 yildan so'ng qaytib kelib qarasaki, ota onasi vafot etgan, aka-ukalari yo'q, bilasi ham fojiali tarzda g'oyib bo'lishgan.

Abdurauf qori dada uzoq vaqtlar sarsongarchiliklardan so'ng o'zidan bir necha yosh katta Robiyaxon aya bilan oila quradi va bir qiz, ikki o'g'il ya'ni katta o'g'li Abdupattohni kichik o'g'li Abdullohni va bir qizini ko'radi.

Abdurauf qori dadaning yoshi ulug'ligiga qaramasdan, hotirasi yosh yigitnikiday. Bu inson bilan olib borgan suhbatlarimizda hattoki minorani 85 ta zinapoyadan iborat ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari Jome madrasasi tarixiga oid ko'plab voqea va hodisalarni so'zlab berdi.

Uni so'zlashicha, Andijon Jome madrasasi kabi madrasa nafaqat Farg'ona vodiysi bo'yicha, Toshkent shahrida ham bo'lmagan. Shuning uchun Jome o'sha davrlarda juda ham obod va o'zgacha fayzli bo'lib, bu yerda minglab talabalar tahsil olganlar.

Madrasaning yon tomoni (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Oliy ta'lim" Davlat Unitar korxonasining Andijon Sho'ba

¹ Азимов И. Архитектурны памятники Фергаской долины. Ташкент., "Узбекистан". 1982-г Ст..53.

korxonasi va qisman viloyat O'lkashunoslik muzeyi o'rnilarida vaqf yerlari bo'lib, asosan 6 yerda donli ekinlar yetishtirilgan.

Ko'plab rivoyatlarda minoraning yuqori qismidagi yarim oy shakli tilladan ekanligi ta'riflanadi. Bu oltinni o'z davrining eng mohir ustalaridan bo'lgan Odil zargar yasagan ekan. Rivoyat qilishlaricha: Mamtaliboy bu oltinni vaqti kelib madrasa shikastlansa yoki ta'mir talab bo'lib qolsa, shu oltinlar hisobidan o'sha harajatlar qoplanishi ko'zda tutilgan ekan. Ya'ni boshqacha qilib aytg'anda Mamtaliboy minoraning yuqori qismiga mu'ayyan mablag'ni qoldirgan ekan.

Bu oltinni yasagan usta zargarga to'htalsak Andijon viloyat madaniyat yodgorliklarini saqlash Davlat inspeksiyasi inspektori Dilshodbek Yusupovning ta'kidlashicha: Odil zargar aslini olganda dahanapoynak (tojik tilida dahana og'iz, poynak poy suyagi yani qadimda pichoqlarning dastalari xayvon tishlari va suyaklaridan yasalgan bo'lsa bu pichoqlarni xalq "dahana poynak" deb atashar ekan) sopli pichoqlar yasab ekan, lekin u zargarlik san'atini shunchalar egallagan ekanki oltindan hattoki insonni ham yarata olar ekan. Dilshod akaning aytishicha Odil zargar, oltin qinli har turlik qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan dandon sopli pichoq yasab uni o'sha davrdagi general gubernatorga sovg'a qilgan ekan. Bu sovg'adan ta'sirlangan general gubernator eng yaxshi otini zargarga in'om sifatida taqdim qilgan ekan. Tarixdan ma'lumki o'sha davrlarda ot hurmat ehtirom ma'nosini anglatgan, shuning uchun eng yaqin insoniga, do'stiga sovg'a sifatida ot in'om etish urf bo'lgan. Bu qo'li gul usta zargar ikkinchi jahon urushi davrida, anikrogi 1941 - 42 yillari olamdan o'tgan ekan. Lekin keyinchalik o'sha minoradagi oltin rangli metalga almashtirilib qo'yilgan. Kim va qachon bu ishni qilganligi noma'lum. Shunisi aniqki, 1902- yildagi zilziladan so'ng o'sha oltinni usta Yusuf Ali Musaev minoraning ustki qismiga ya'ni o'z o'rniga o'rnatib qo'ygan ekan. O'sha 1902- yilgi daxshatli Andijon zilzilasi oldin Farg'ona vodiysi, ayniqsa, Andijonda uch yuz yil mobaynida juda kuchli bo'lgan.¹

85 yoshli Andijon shaxri Shaxrixon ko'chasida yashovchi yuqorida ta'kidlangan Solimjon ota Raximovning aytishicha, minoraning yuqori qismidagi

¹ Shamsutdinov R, Ishoqov S. Andijon tarixidan lavhalar. Toshkent., "Sharq", 2013-yil, -B.91.

yarim oy shakli haqiqatdan ham oltindan yasalgan bo'lgan. Uni "oqqulaq o'rislar" o'g'irlashgan, lekin qachon va qay tariqa o'sha oltinni o'g'irlaganliklarini hech kim bilmaydi. Ammo bu ishni ruslar qilganligi aniq .

Andijon shaxri Piyon bozor daxasida istiqomat qiluvchi 80 yoshli Nuriddinov Kamoldin quidagilarni so'zlab berdi. "O'zim bilmayman, lekin otamning aytishiga qaraganda ruslar minora ustidagi oltinni qurol yordamida otib tushurib olgan ekanlar".

Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi raxbari To'lqinjon Qo'ldoshevning aytishicha 1902- yildagi zilzilaga qadar minoradagi yarim oy shakli yuqoriga qaratib o'rnatilgan ekan. Zilziladan so'ng esa uni me'mor negadir teskari holatda o'rnatgan ekan.

Urush yillarida aniqrog'i 1942-43 yillari "urushga yordam fondi" deb ataluvchi tashkilot tuzilib aholidan eski kiyim-kechaklar, oyoq kiyimlari va hattoki qimmatbaho zargarlik buyumlarini ham shu jamg'armaga topshirganlar. Evaziga esa qashshoqlikdan sillasi qurigan aholiga non va shu kabi ozuqalar tarqatilgan. Shu davrlarda minora ustidagi oltinni ham ruslar o'sha maqsadlarda o'g'irlagan ekanlar. Lekin bu voqeani Andijonning yoshi katta ba'zi bir insonlari tasdiqlashmadi. Ularning aytishlaricha 1930-yillarga kelib Jome madrasasining hududida bozor tashkil topilgan vaqtlarga kelib oltin yo'q bo'lgan ekan.

Ba'zi insonlarni ta'kidlashlaricha o'sha oltin inqilob davridan xech qancha vaqt o'tmay ruslar tomonidan yo'q qilingan ekan.

Andijon shaxrida 1902- yil 3(18) dekabrda, avji yog'ingarchilik kunlari kuchli zilzilalar bo'lib o'tadi. Yer ketma-ket 3 marotaba silkinadi: 1-chi 8-9 balli, 1-1.5 daqiqadan so'ng, 2-chi 9 balli silkinish va yana 30 daqiqadan so'ng 3-chisi 8 - 9 balli chilkinishlar bo'lib o'tdi.

Lekin xalq orasidagi rivoyatlarda ta'kidlanishicha bu kuni o'ndan oshiq zilzilalar bo'lib turgan va bu zilzilalar shaharni tamomila vayronaga aylantirdi.

Zilzila natijasida temir yo'llar shikastlandi, o'nga yaqin rus harbiylari va yuzdan ortiq ko'chib kelgan ruslar olamdan ko'z yumdilar, 17 rus va 500 dan ortiq mahalliy aholi yaralandi. Barcha harbiy inshootlar, yangi shahardagi yuz ellikdan

ortiq uylar, vokzal, 2000 ga yaqin rus uylari vayronaga aylangan. Binolardan faqat yangi shahardagi rus cherkovi va eski shahardagi Jome qariyb shikastlanmagan.¹ Rus cherkovi kichik va ovro'pa uslublarida qurilganligi sababli faqatgina bir necha katta yoriqlar paydo bo'lgan bo'lsa, 14 tanob (2.5gektar)li Jomening qurilishi oldidan ostki qismiga juda qalin holatda somon solinishi natijasida janubiy qismdagi gumbaz, minora mezonasi va asosiy kirish darvozasining yuqori qismida joylashgan gumbaz-darsxonagina butunlay yer bilan yakson bo'ldi xolos.

Andijon viloyat madaniyat yodgorliklarini saqlash Davlat inspeksiyasi hodimi Dilshodbek Yusupovning ta'kidlashicha: minoraning asosi va mezonasi oralig'ida "belbog'" deb ataluvchi joy bo'lib, u qanchalik mustahkam bo'lsa minora ham uzoq vaqtlar mobaynida mustahkam turaveradi. Xuddi o'sha belbog' qurilayotgan vaqtda bosh usta me'mor Musaxon 90 yoshda edi. U ukasi Isaxonga "Meni minoraning yuqori qismiga olib chiq" deb iltimos qiladi. Isaxon esa uning yoshi kattaligi uchunmi yoki boshqa sababmi "U yerda nima qilasiz?" deydi. Musaxon esa "Belbog'ni qanday qilayotganingni ko'rmoqchi edim", - deydi. Isaxon esa "Shu erda o'tirib aytavering qilaveramiz-ku, undan ko'ra o'tirib damingizni oling." - deydi. 1902- yili bo'lib o'tgan zilzilada minora huddi o'sha usta me'mor ko'rmagan belbog'idan qulaydi.²

Xartum dahasida istiqomat qiluvchi Asror Jo'raevning quyidagilarni so'zlab berdi: "Otam Avazbek, bolalik chog'larida minora ostida bir kuni bolalar bilan har turlik o'yinlar o'ynayotganlarida, birdan zilzila boshlanib, minoraning yuqori mezona qismi va ba'zi koshinlar oldilariga tushgan ekan".

Jome madrasasi bir necha yillar davomida shu holatda turadi.1906- yilga kelib esa Usta Yusuf Ali Musaev tomonidan bino qayta ta'mirlanadi.

Jome Andijonning yaqin va uzoq o'tmish tarixini guvohidir. Bu mo'tabar joyda turli davrlarda xalq xotirasida hamisha saqlanib kelayotgan tarixiy voqealar bo'lib o'tgan.

¹ Jalilov S. Andijon, Toshkent., "O'zbekiston", 1989-yil, B.56.

²Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi- 9023 raqamli fond arxividan.

1913-1914 yillar Rossiyada revolyusion harakatlar yangidan boshlanib, Turkiston shaharlari, jumladan, Andijonga ham yoyildi. 1914-yili yozda shaharda "Yerlilarning urush ehtiyojiga yordami haqida" varaqa tarqatilib, juma kuni Jome madrasasida o'qib eshittirildi va mudarris mulla Xoliqberdi Oxun domla 20 ming so'm to'plab berishni taklif qildi. AMMO nomozga kelgan hunarmand. va kosiblar g'alayon qilishib Jomeni tashlab ketdilar.¹

Chor Rossiyasi va uning mustamlakachilik siyosatiga karshi 1916-yilgi milliy ozodlik harakati, "mardikor oldi" qo'zg'oloni Andijon viloyatida birinchi bo'lib shu Jome madrasasida boshlandi.

1916 -yil 9- iyul kuni ertalab qozilar, mahalliy oqsoqollar va ellikboshilar aholiga uezd boshlig'i I. A. Birjezitskiy podsho Nikolayning Turkistondagi "Erkaklarni harakatdagi armiya rayonidagi harbiy inshootlar va davlat mudofasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb etishdan" iborat 1916- yil 25-iyundagi formasini e'lon qilish uchun to'plangan edilar. Biroq voqeadan xabardor bo'lgan minglab shaharliklar ham Jome darvozasiga to'planishdi. Odamlar "mardikor bermaymiz!" - deb qichqirishdi. Bu voqealarning faol qatnashchisi, nonvoy Usmonjon Muhammad Rahimovning o'g'lini hikoya qilishicha, shahar kattalari mardikorlikka olish haqida ma'ruza boshlaganda "Mardikorlikka boylarning o'zlari borishsin!" - degan tovushlar eshtiladi. Mingboshilar do'q ura boshladilar. Shunda "Ur zolimlarni!" - degan qichqiriq yangradi, odamlar o'tin bozoridagi butun yog'ochlarni tashib kelib, qo'liga ushlab olgan edilar. Yirik boy Qosim Inoq Hoshimjon hojini ham tosh bilan urib o'ldirishdi. Uezd boshligi Birjezitskiy va amaldorlar harbiy kuch olib kelish uchun garnizon tomon jo'nab qolishdi. Sundan so'ng xalq to'p-to'p bo'lib Skobelev (hozirgi Navoiy - R. R. B) ko'chasi bo'ylab yurishdi va Gultepa maydoniga kelganda Birjezitskiy boshliq 4-Ural kazaklar rotasi bilan to'knashdi. Qo'zg'olonchilar uezd boshqaruvchisidan mardikorlikka olmaslik haqida tilxat berishni, aks holda ellikboshi va mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mollarini talon-toroj qilishlarini aytdilar. Keyin esa kazaklarga qarata tosh, ketmon, tayoqlarni ota boshladilar. So'ngra

¹ Ziyayev X. O'zbekistonda 1916 yil qo'zg'oloni ishtirokchilari, Toshkent, "Fan", 1977 yil, B.75

qo'zg'olonchilar soldatlarning qurollarini tortib ola boshladilar, bir kazak va bir necha politsiyachi yarador bo'lishdi. Shunda Birjezitskiy kazaklarga otishga buyruq berdi. Buning natijasida 10 kishi og'ir yaralandi.¹ Taniqli tirixchi olim X. Ziyayev o'z tadqiqotida mana bu qiziq bir voqeani keltiradi: "Shu qo'zg'olon ishtirokchisi yuqorida keltirilgan Usmonjon Muhammad Rahimovning eslashicha "Jome madrasasi oldida shahar amaldorlari aholini mardikorlikka olish haqida so'zlaganlarida xalq orasidan "mardikorlikka bormaymiz", "boylarning o'zlari borsin" degan ovozlari eshitildi. Mingboshilar xalqqa qarab do'q urgan edilar, olomon "zolimlarni o'ldirish kerak" deb ulardan birini tosh va g'ishtlar bilan urib o'ldirdi. Shunda amaldorlar yangi shahar tomon ko'cha boshladilar, olomon esa ularning orqasidan quvib ketdi. Men esa shahar hokimi o'tirgan izvoshni to'xtatish uchun otni jilovini orqaga tortdim. Qo'zg'olonchilar, hokimga yopishdilar. Shunda chor hukumati askari meni qo'limga qilich soldi va qo'limni tirsagigacha chopib tashladi". Butun iyul oyi shahar va qishloqlarda xalq harakati to'xtamadi. Farg'ona oblast harbiy gubernatori general Gippius 15 iyul kuni Toshkentga raport yuborib, "Hozirgi sharoitda majburiy tarzda ishchi olishni o'ylamaslik kerak" - deb yozishga majbur bo'lgan edi". Faqat mardikorlikka borish "ixtiyoriy" deb yolg'ondan e'lon berish bilangina qo'zg'olon bostiriladi. Turkistonga yuborilgan Davlat Dumasi delegatlaridan A. F. Kerenskiy va K. B. Tevkelevlar 1916- yil avgust oyida voqeani tekshirish uchun Andijonga keldilar. 25 - avgust kuni Jomeda ommaviy yig'ilish mo'ljallangan edi. Lekin mahalliy boylardan Mirkomilboy, Miraliboy, oqsoqollardan Shermat mirza, soy dahasining qozisi Mulla To'laqul, eshon Madmusa Oxun kabilar hech kimning esidan chiqmagan voqealarni yana ommaviy muhokama qilishni xavfli deb hisoblab, faqat tor doirada yig'ilish o'tkazishni maslahat beradilar. Amaldorlar, ellikboshilar bilan kelishgan holda baribir mardikorlikka shahardan odam olinadi.

1917- yilda Chor hukumati ag'darilib, Sho'ro bolsheviklari hokimiyat tepasiga kelganida, shaharda qariyb katta bino bo'lmaganligi sababli Jome madrasasi vaqtinchalik hukumat uyiga aylantiriladi. Yillar o'tib bu hukumat uyi

¹ Ziyayev X. O'zbekistonda 1916 yil qo'zg'oloni ishtirokchilari, Toshkent., "Fan", 1977 yil, B.75.

Ahmadbek xoji mehmonxonasiga ko'chiriladi va shaharda ilk paranji yoqishlar shu Ahmadbek xoji mehmonxonasi tashqarisidagi kattakon chinor darahti ostida bo'lib o'tadi.

Jome madrasasida shu yili ya'ni 1917- yilning 3- aprelida Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan inqilobiy voqealar munosabati bilan miting bo'lib o'tdi. Balkim aldangan xalq bu inqilobni ozodlik deb o'ylagan bo'lsa kerak.¹

"Bosmachilik" deb atalgan istiqlol uchun kurashning avj olgan davrida Andijondagi bu mo'tabar dinu-diyonat, milliy ma'naviyat markazini qizil bolsheviklarlar vahshiyona toptagandilar. Turkiston respublikasi Xalq Komissiyalar Kengashi raisi Qayg'iz Otaboev shaxsan o'zi Andijondagi Jome masjidi va madrasasida bo'lib, 1922- yil 18- iyulda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston ASSR Markaz Ijroqo'mi 4-plenumi 5-majlisida so'zlagan nutqida shunday degan edi:

"... Bizning" Yo'qolsin eski dunyo, yo'qolsin burjuaziya" degan shiorimiz hayotga taxminan quidagicha joriy etildi. Biz eski dunyo deganda barcha masjid va madrasalarni tushundik va ularni berkitib qo'ydik. Qozi va ulamolarni hisobga o'ldik: diniy xurofotga qarshi kurashimiz shunday o'z ifodasini topdiki, Marg'ilonda Sovet Hokimiyatining vakillari musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onni yoqib yuborishdi. Andijondagi Jome' masjidi musulmon otryadlarining qo'nalg'alariga aylantirildi va u yerda bachchavozlik avj olib ketdi. - ta'kid mualliflarniki".

Andijon shahriga 1925- yil M. I. Kalinin tashrif buyurdi. Shahar vakzali, poliklinika va Jome madrasasida qishloq xo'jaligini kollektivizatyalashtirish, davlatlar industriyasi va yer-suv islohotlari haqida nutq so'zladi.

Ko'pgina tarixiy voqealarni shohidi bo'lgan Jome madrasasi 1929 - yili O'zSHIJ Markaziy ijroiya qo'mitasining 1928- yili 19- noyabrdagi "Eski ulus maktablari va qorixonalarini tugatish haqida"gi qarorga muvofiq o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi. Talabalar tarqatib yuborildi.

¹ Ismoilova X. Andijonda 1916 yilgi qo'zg'olon. Toshkent., "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", 1954, № 8, B.42

1930- yillarga kelib Andijon shahrida yer maydoni jihatidan eng katta bo'sh joy Jome bo'lganligi sababli bu yerda "kappon" ya'ni don-dun bozori tashkil topgan.

Jomening shimoliy tarafida hunarmandchilik rastalari joylashgan bo'lib, bu yerda asosan kulolchilik, temirchilik, to'qimachilik va boshqa mollar bilan savdo qilingan. Janubiy tarafida esa don-dun, un, guruch va shunga o'xshash donli va dukkakli ekinlar bilan oldi-soti qilingan. Jomening markaziy o'rta qismida ho'l va quruq mevalar, sabzovot, poliz ekinlari orqali savdo qilingan.

Jome old qismining tashqi tomonida esa asosan matohlar, kiyim kechaklar, poyabzal va shu kabi boshqa yayma (chayqov) buyumlar sotilgan. Aytishlaricha bu davrlarda Jome madrasasi juda obod bo'lgan ekan.

Yuqorida aytib o'tilgan 85 yoshli Andijon shaxri Shaxrixon ko'chasida yashovchi Salimjon ota Raximovning so'zlashicha madrasaning janubiy qismi ikkinchi jaxon urushi yillarida Jome Polsha, Ukraina va shu kabi urush bo'layotgan joylardan evakuatsiya qilingan yosh bolali ayollarga boshpana bergan. Ular asosan Jomening ikkinchi qavatida 1967- yilgacha yashab kelganlar va ko'proq bu yerda jo'xidlar yashaganlar. Keyinchalik ko'p qavatli binolar qurilib ularni ko'chirishga qaror qilinganida hach birlari madrasadan ketkilari yo'qligini aytadilar. Ularni kuch yordamida janub tarafdagi hujralardan ko'chirishgan ekan.

Xalq orasidagi rivoyatlarda: Shu yili Hindistondan kelayotgan davlat arboblari Bobur tug'ilgan shaharni ko'rish ilinjida ekanligini aytadilar, natijada madrasa bir kechada sobiq ittifoq organlari tomonidan tozalab qo'yiladi. Ya'ni barcha aholini ko'chirib tashlaydilar. Ertasi ertalab esa Jome bo'm-bo'sh bo'lib qolgan ekan.

Abdufattoh Abdullaevning aytishicha urush yillari qattiq ocharchilik bo'lib, natijada o'sha Jome madrasasida yashovchi aholi, qarindosh-urug'siz ba'zi o'zbeklar ham ochlikdan kunjara yeyishar, buning natijasida rangilari o'zgarar, ko'p o'tmay halok bo'lishar ekan. O'liklarni esa Jomening darvozalari oldiga olib chiqib tashlanar ekan. Hozirgi Valodarskiy fabrikasining old tomonining ya'ni Jome madrasasining yon tomonining o'rnida xayvon bozori joylashgan.

Usmonjon Kenjaev quyidagilarni soʻzlab berdi: Bir kuni ikki akam bilan madrasadagi bozorga tushdik. Akalarimning qoʻlida bittadan hurjunlari bor edi. Biz kerakli narsalarni harid qilganimizdan soʻng. akalarim 3 tanga yaʼni 6 pul hisobiga minorani tomosha qilgani chiqib ketishdi, meni esa hurjunlarning ustiga oʻtqazib tushgunlaricha hech qaerga ketmasligimni aytishdi.

1938- yillarda madrasada Qizil armiya shtabi joylashgan.

Oʻsha davrlarda Jome madrasasining old qismida hammom joylashgan boʻlib, bu hammomda aravakash Musavoy aka degan kishi ishlar ekan. U jasadlarni oʻsha hammomga toʻplab, har 10 - 15 kunda usti berk Qoʻqon aravaga solib, hozirgi ruslar qabristonining orqa tarafidagi chuqurga tashlab kelar ekan.

Shunga qaramasdan koʻchalarning har bir maxallasida, har bir burilishida va hattoki katta koʻchalarda ham murdalarni uchratish mumkin boʻlsads. madrasaning shimol tarafida joylashgan gumbaz osti oshxona, soʻngra somovor boʻlib ham xizmat qilgan.

1943-yil Sovet xukumati Jome madrasasining gʻarb tomonidagi bir nechta hujralarda ateistlar, yaʼni dinsizlar oʻquv markazini tashkil qildi. Jome madrasasining homiysi boʻlgan Mamtaliboyning va Yakka tolilik madrasaning birinchi mudarrisi boʻlgan Mullo Xoliqberdi oxund domullolarning honaqox yaqinida joylashgan hujralarning biridagi qabrlari yoʻq qilinishiga buyruq beriladi. Bundan habar topgan boy qarindosh-urugʻlari va yaqin doʻstlari tunda qabrlarni kovlab olib shaharning mashhur « Bobo Sadiriddin » qabristoniga qaytadan dafn qilishadi.

1959-1960 yillarga kelib Andijonda ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida madrasaning janubiy qismiga Valodarskiy fabrikasi koʻchirib kelinadi va bu muqaddas tabarruk joy joʻxid, rus va boshqalarni ish bilan taminlash hisobiga 45 ta hujra, bir gumbaz darsxona yoʻq qilinadi. Jomening shimoliy tarafida joylashgan toʻquvchilik sexlari ham fabrikaga koʻchiriladi.¹ Shu oʻrinda Oʻsha davrdagi viloyat partiya komitetining birinchi kotibi Bektosh Raximovning quyidagi soʻzlarini eslashni joyiz deb bildik "Afsus, agarki bir necha yil ilgari shu

¹ Andijon viloyati Adabiyot va sanʼat muzeyi, № 9023 – fond.

lavozimga kelganimda ham Jome madrasasini saqlab qolgan bo'lar edim". Eng qizig'i Bektosh Raximovning viloyat raxbarligiga saylangan davrda Andijonda juda ko'plab o'zgarishlar bo'lib ketgan edi. Andijon "Qal'a"sini yangi Andijon O'sh yo'lini ochish maqsadida ikki qismga bo'linib ketishi, Jome madrasasini fabrika qurish maqsadida qisman buzilishi. Bu xolatlarni ko'rgan rahbar Bog'ishamol dahasini qurdirishga, ruslar qilgan rasvogarchiliklarni qandaydir ma'noda qoralash maqsadida tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi.

Sobiq itifoq davrida madrasa binosi turli maqsadlarda foydalanib kelindi. 1970 yili etiborsizlik oqibatida ancha nurab qolgan madrasa binosi davlat muhofozasiga olinib, UzSSR ning 50 yilligi munosabati bilan o'sha davrdagi O'zSSR Madaniyat vazirligi (ministirligi)ning Andijonda tashkil qilingan Zonal ilmiy restavratsiya ustaxonasi tomonidan ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi. Ta'mirlashda Andijondagi ilmiy ta'mirlash ustaxonasi ustalari arxitektor SH. Faxruddinov, prorab Sobirjon Qobulov, koshinpaz Abdumannob Qodirov, ganch ustasi Ibroximjon Mamadaliev, yog'och o'ymakori Usta Tesha Ismoilov va boshqa qo'li gul ustalar faoliyat ko'rsatishgan. Bundan tashqari bu ishga usta Musoning nabiralari - usta Valixon va usta Mo'ydinlar ham faol qatnashdilar.

Natijada uning sharq tomonidagi ikki qavatli hujralari va bosh darvoza peshtoqlari san'atkorona tiklandi. Yuqorida aytib o'tilgan o'sha davrdagi viloyat partiya komitetining birinchi kotibi Bektosh Raximov tashabbusi bilan 1974-yil noyabr oyida Jome madrasasining 32 hujradan iborat 500 ming rubl hisobiga ta'mir qilingan qismida 1975- yilda ulug' olim Xamid Sulaymonov rahbarligida O'zbekiston F.A. qo'lyozmalar institutiga qarashli Adabiyot muzeyi tashkil qilindi va bu muzey uzoq yillar mobaynida faoliyat olib bordi.

1978- yilga kelib esa Jome madrasasida Andijon viloyat O'lkashunoslik muzeyining Z.M. Bobur nomli bo'lim muzeyi o'z faoliyatini boshladi.

1989- mart oyida Jome madrasasi xalqning talabi bilan Andijon viloyat ijroko'mining 1989 yil 13 iyundagi 155 - 11 sonli chiqarilgan qarori asosida dindorlar ihtiyoriga qaytarildi.

1989 - 1995 yillar oralig'ida Jome madrasasi yana diniy ta'lim oluvchi maskanga aylandi.

Xalq Jomeni ta'mirlab qayta tiklashga kirishadi. Natijada madrasada juda katta xashar amalga oshiriladi. Ba'zi insonlar bu faoliyatni kattaligi sababli ikkinchi xashar deya atadilar. Birinchi xasharda esa Farg'ona kanalini qazildi.

Honaqox qismi betakror me'morchilik va naqqoshlik namunasi sifatida avvalgidanda go'zalroq, maxobatliroq ta'mir etildi. 85 mertdan iborat ichki ayvon xozirgacha ko'zlarni quvontiradi. Xonaqohning old ayvon qismi yerda tayyorlab olinib so'ngra yuqoriga maxsus uskunalar yordamida ko'tarilgan holat, nafaqat vatanimiz fuqorolarida, xorijiy mexmonlarda ham yangilik sifatida qiziqish uyg'otmay qolmaydi, albatta. Ming afsuski betonli yerto'lalar bilan tiklangan shimoliy qanot o'zining ilk ko'rinishini yo'qotdi va chalaligicha qolib ketdi.

O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Andijon shahar hokimining 1996- yil 2 yanvar 01 – K sonli Qarori qabul qilindi va shu yili Jome' madrasasida yana Andijon viloyat adabiyot va san'at muzeyi joylashdi.

Hozirgi kunda Jome madrasasidada Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyining bir necha bo'limlari, xalq amaliy san'ati hamda adabiyot bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Muzey ekspazitsiyalardan hozirgi kunda asosan Andijonlik qo'li gul ustalar va qalam sohiblarining ijod mahsullaridan na'munalar o'rin egallaganlar.

Muzeyda "Andijon adabiy muxiti", shoir, yozuvchi va boshqa fidoiy insonlar faoliyati, xalq amaliy san'ati ustalari, musavvir-u mo'yqalam soxiblarining davr ruhiyatini beruvchi asarlari saqlanmoqda, ular ishlari ma'naviy me'rosimizga muxabbat ruhida tarbiyalash uchun xizmat qilmoqda.

Ming afsuslar bo'lsinki madrasaning xonaqoh qismi juda ham ayanchli axvolda. Xususan minora va honaqox ta'mir talab, atroflarida hali hanuz savdo bozorlari mavjud.

1995-1996 yillar davomida buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Jome madrasasining honaqox qismida Andijon viloyat Adabiyot va San'at muzeyining "Amir Temur bo'limi" ochilish loyihalari ko'rib

chiqiladi va o'z navbatida muzey ekspozitsiyalari uchun kerakli eksponatlar to'planadi. Lekin, bu loyiha loyihaligicha qolib ketadi.

Muxammad Iso Domullo Muxammad Murod o'g'li Jome honaqosiga urinilayotgan ya'ni g'isht-tosh qo'yish oldidan birinchi bo'lib xutbaga chiqqan.

2000-yilga kelib Jome' madrasasining muzey qismi qisman ta'mirlandi. Ammo ta'mir ta'lab joylari bir talay.

Rossiya O'rta Osiyoni bosib olishi bilan Qo'qon xonligi ham tugatildi. Farg'ona vodiysida tartib o'rnatish baxonasi bilan polkovnik Serebryannikovning jazo bo'linmalari yuboriladi. 1876-yilning 8-yanvar kuni ertalab 9.30 da Chor xukumat soldatlari Andijonni zambaraklar bilan o'qqa tutib, so'ng uni egallaydilar.

Rus qo'shinlari shaxardagi Nasriddinbek O'rdasiga va yonidagi Jome' masjidiga o'rnashdilar.

O'rda yaqinida joylashgan masjidi Jome urush paytida to'p o'qi tegib bir qismi vayron bo'lgan bo'lsa xam uni ruslar egallab, askarlari turadigan va aslaxasi saxlanadigan pixotasi bor joyga aylantirildi.¹

Ruslar bu yerga yog'och va taxtadan butxona, o'zlari uchun yotoqxona va otxonalar qurishadi. Bu ishlarni qurgan Andijonlik Islom ulamolari va badavlat kishilar to'planib, gubernatorga, "Bu yerlar vaqf joyi, biz bu yerda madrasa quramiz", - deb askarlarni janubga chiqarishlarini so'rab arz kiladilar. (O'sha vaqtlarda xozirgi "osma ko'prik"ning yuqorisi, janub tomoni bog'lar va uzumzorlardan iborat edi).

Masjid joyda yashovchi imom xatib va mullavachalar xaydab chikarilgan edi. Oradan ikki yilcha vaqt o'tib, zamona tinchib, yerli amaldorlar bilan rus ma'muriyati sekin-asta til topa boshladi. Maxalliy beklardan Orziqulbek va boshqalar ruslarga xizmat qilish yo'llarini qidira boshladilar. Bu kishilarning harakatini kuzatib turgan shaxarning ulamolari xam ularning izidan borib, O'rda yaqinidagi masjidni bo'shatib berishlarini so'raydilar. Ammo ularni talabi xarbiy ma'murlaaning qarshiligiga uchraydi. Bir qancha vaqtlardan so'ng Rus

¹ Dots. YusupovE. shaxsiy arxividan.

xokimlar shaxarda yashovchi musulmon ulamolari bilan aloqani mustahkamlash baxonasi bilan ular so‘ragan eski masjidni bo‘shatib berish to‘g‘risida 1882-yil Andijon uezdi nachalnigi podpolkovnik Smirnov tomonidan rasmiy xat tashkil qilinadi. Bu xatga Otabek qozi, mullo Mirzo Qosim a‘lam, mullo Rustam qozi, mullo Ro‘zibek oxun kabi ulug kishilar qo‘l qo‘ygan edilar.

Xuddi shu yil podpolkovnik Smirnov taqdimiga ko‘ra va yerli nufuzli kishilarning so‘roviga muvofiq Nasriddinbek o‘rdasiga yaqinda joylashgan masjidni rus qo‘shinlarini olib chiqib ketgandan so‘ng bo‘shatib berildi. Ammo bu buzilib ketgan eski o‘rda va masjid o‘rni rus askarlari bilan band bo‘lganligini sabab qilinib general-gubernator mullolar boshqa yerga masjid qurib olsinlar deb farmon qiladi. Shunda podpolkovnik Smirnov bu so‘zni mullolarga yetkazadi. Ular yana Smirnovga murojat qilib masjid qurish uchun joy ko‘rsatib berishlarmii so‘radilar. Smirnov esa xoxlagan yeringizni tanlab madrasa quraveringlar, men qurilish xozirligi bitganda borib ko‘raman deydi. Mullolar maslaxatlashib Nasridinbek madrasasi turgan joyni tanlab o‘sha joy yaqinidan Ayimxon bibi Iso Dotxo qiziga qarashli joyni 100 tilloga sotib oladilar. Mullo Islom sarkarboshi qo‘lida buni tasdiqlovchi hujjat ham borligi tasdiqlandi.¹

Nasridinbek madrasasi rus ko‘shinlari tomonidan ishg‘ol kilingan bo‘lib ular bu madrasani bo‘shatib chiqishlari oldidan uni buzib g‘ishtlari va yog‘ochlarini olib ketdilar. Ular o‘rdani xam xuddi shunday qilib buzib tashlagan edilar.

1880-yilda general Chernyaev Andijonga kelgan paytda o‘rda va masjid binosi vayrona bo‘lib turdi. Maxalliy kishilar general Chernyaevga o‘rda va masjid vayronasi hozir ham xalq uchun nomozgox ommaviy nomoz o‘qiydigan joy bo‘lib xizmat qilishini tushuntirdilar. General Chernyaev axolining iltimosini inobatga olib maxalliy pristav Orakulovga (U o‘sha paytda prostav lavozimini vaqtinchalik bajarib turardi. M. A.) O‘rdani va Nasridinbek askarlardan bo‘shatilgan vaqf joyda yangi madrasa qurilishiga ijozat berildi.

¹ Andijon viloyati Adabiyot va san‘at muzeyi 132-fond

Rus qo'shinlari Andijon "qal'a"sigga ko'chib ketayotganlarida madrasa binosining yog'och va g'ishtlarini o'zlari bilan olib ketib, uning o'rnida yuqorida aytib o'tilganidek xaroba qoldirgandilar.

Andijon "qal'a"si qurilishi haqida bir necha rivoyatlar mavjud bo'lib shulardan biri shunday. O'sha davrdagi shaxar boylarining eng nufuzli boylaridan biri mashxur "Jome" madrasasi qurilishi xomiysi Maxmudaliboy shaxar boylariga "agarda ruslarga qal'a qurib bersakgina ular madrasani bo'shatib chiqib ketishadi" degan taklifni bildiradi. Shaxar boylari rozi bo'lishgach qal'a qurilishi boshlab yuboriladi.

"Qal'a" - bu nom bilan qachadan-qancha iste'lochilik yurishlari, ayovsiz va qonli Rusiya diktaturasi qolaversa proletar diktaturasi o'rnatilishi, sovetlar xukumronlik yillari bilan bog'liq shavqatsiz urushlar va qirg'inlarning tilsiz guvoxi. U diniy etiqodi ayoq osti qilingan musulmonlarning o'z erki uchun olib borgan milliy ozodlik harakati haqida hikoya qiluvchi tosh kitobdir. "Qal'a" 1880-1882 yillarda Rus qo'shinlari uchun harbiy istexkom sifatida - Andijon shaxrining sharqiy-janubidagi eng baland tepaligiga qurilgan. Tarixiy hujjatlar bo'yicha "Qal'a" devorlarining balandligi 10 metr dan yuqori bo'lib, bu 3 qavatli uyga teng keladi. Hozir esa obidaning uchdan bir qismigina saqlangan xolos.¹ U xarbiy strategik ahamiyatga ega bo'lib, "qal'a" devorlaridan turib birinchidan shaxarni yaqinlashib kelayotgan tashki dushmandan mudofaa qilish bo'lsa, ikkinchidan shaxar kaftdek ko'rinib turgan (o'sha davrda shaxar ikkiga bo'lingan bo'lib yangi va eski shaxarlar deb atalgan. Yangi shaxarda ruslar, eski shaxarda esa maxalliy aholi istiqomat qilgan. "Qal'a" ham o'z navbatida yangi shaxarning yuqori qismiga bunyod etilgan va yangi shaxar ma'lum bo'lishicha shunday bir reja asosida qurilgan ekan-ki uning xar bir ko'chasi qal'aning o'tish teshigiga to'g'rilangan ekan va oysimon xolatda bunyod etilgan ekan.), bu esa shaxar ichidagi g'alayonlarni bostirish imkoniyati xisobga olingan.²

¹Yusupov D. "Qal'a"-me'moriy yodgorligi, // "Andijonnoma", 2010-yil. 17-aprel. №33.B.4.

² Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish viloyat inspeksiyasi hodimi Yusupov D. shaxsiy arxividan.

“Qal’a” bunyodkori A. I. Istomin bo‘lib, u Qrim urushida qaxramon bo‘lgan. Mudofa ishlari vaziri lavozimida faoliyat olib borgan.

“Qal’a” devorlari qalin, baland bo‘lib yuqori qismida Qo‘qon aravasi ham yura oladigan kattalikda bo‘lganligi xaqida ma’lumotlar uchraydi. Bundan tashqari bir necha kazarma binolari, qurol aslaxa omborlari, oshxona-yu tupxonlari bo‘lib yirik 4,5g kattaligidagi mudofa qo‘rgoni edi. Devorlarining qalinligi 2-3 metr hom va pishiq g‘ishtdan qurilgan.¹ Hozirgi “qal’a “ devorlari balandligining ko‘rinishi esa oldingi ko‘rinishining 3 dan 1 qismi xolos. “Qal’a”da 20-chi Turkiston asosiy muntazam xarakatdagi botaloni 4 va 5 rotalariga tegishli 120 dan 200 tagacha shartnoma asosida xizmat qilayotgan zobitlar (1898- yildagi qo‘zgolonidan so‘ng ularning soni 2000 taga yetgan.) istiqomat qilganlar.

“Qal’a” ko‘pgina tarixiy voqealar guvoni bo‘ldi. 1898-yili Andijonda mashxur Dukchi (Muxammad Ali) Eshon nomi bilan yuritiluvchi Andijon qo‘zgoni bo‘lib o‘tgan. Bu qo‘zgolonga tayorgarlik ko‘rish maqsadida Eshon xuzuriga sobiq amaldorlar, turli shaxslar ko‘plab to‘plangan. Atrof kirgiz kishloglaridan kelgan sodda kishilar Dukchi Eshondan qo‘zgon boshlashni va unga raxbarlik qilishni so‘rashgan. Eshon xar bir shaxar va kapa qishloqdagi nomdor shaxslarga o‘z xarakatiga qo‘shilishni so‘rab maxfiy xatlar jo‘natadi. Chunonchi Andijon shaxridagi mashxur Jome’ madrasasini bunyod etgan nufuzli Mamtalboyga va Jome’ bosh mudarissi Mulla Xolik Berdi Oxunga, Oloy vodiqidagi mashxur Qurbonjon dodxo O‘shga Yaqub oxund a‘lamga, Marg‘ilondan Yusufxon Eshon va Said Axmad Xo‘jaga, Namangandan Yax‘yoxon to‘ra, Jome madrasasi homiysi Mamtalimboy nomiga xatlar yuboradi. Yuborilgan nomalarga turli fikrdagi javoblar keldi.²

Eshon o‘z bilganicha ish tutadi. Natijada “qal’a”da joylashgan 20-chi Turkiston muntazam qo‘shinlari askarlari va nochor qurollangan qo‘zgonchi dexqonlar o‘rtasida qonli to‘qnashuv bo‘lib o‘tdi. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar 17-maydan 18-mayga o‘tar kechasi hujum qildilar. Qo‘zg‘olonda 22 rus soldatlari o‘ldirildi, lekin qo‘zg‘olon shavqatsizlarcha bostirilib, 777 nafar

¹Yusupov D. “Qal’a”-me’moriy yodgorligi, //”Andijonnoma”, 2010-yil. 17-aprel. №33.B.4

² O‘sha manba

kishi xbisga olingan edi. Shundan ayblari isbotlanmagani uchun 357 nafari sudgacha ozodlikka chiqarildi, 32 kishini sud oqlada, 388 kishi jazolandi. Qo'zg'olonchilarning 19 nafari dorga osildi. Maxalliy kishilarni aytishicha o'sha davrlarda qal'aga yaqin joyda non do'koni mavjud bo'lgan. Bu yerdan boshqa kishilar kabi "qal'a" axoli xam non xarid qilganlar. Sotuvchi esa ma'lum sabablarga ko'ra mablag'i yo' bo'lib qolgan kishilarga ham nasiyaga non beravergan, bundan foydalangan rus g'alamis zobitlar nasiyaga non olardilarda qarzini to'lamaslikni odat qilib olgan edilar, Oxir oqibat sotuvchi rus zobitlariga non sotmay qo'yibdi. Bundan g'azablangan zobitlar o'sha osilganlarga qo'shib aybsiz odamni xam dorga osishgan ekan.

Turkisiton bosh xarbiy gubernatori Duxovskiy "Qo'zgonning asosiy aybdori osib o'ldirilgach, jasadi dordan olinib qal'a ichiga ko'milsin va ustiga xojatxona qurilsin", deb ko'rsatma bergan edi. Oxirgi paytda bu qaror o'zgaradi. Dorlar qurilgan maydon ancha no'tekki edi. Qo'zgonchilar shu erga ko'milib, ustidan so'ndirilmagan oxak, keyin tuproq tortildi. So'ng qatl etilganlar qayerga ko'milganligi bilishmasligi uchun butun maydon tekislab yuborildi.

Ajoyib xolat o'sha davrda shoirlarning bir nechtasigina bu qo'zg'alonni xalq ozodligi sifatida e'tirof etishgan. Qolgan juda ko'plab shoirlar Dukchi Eshon qo'zg'aloniga tanqidiy ko'z bilan qarashgan.

1917-yil Andijondagi revolyutsiya vaqtida "qal'a"da Chor Rossiyasi va Sho'ro hukumati o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Uzoq vaqt davom etgan qirg'inbarotdan so'ng qizillar g'olib kelishadi.

Sovetlar tuzumining dastlabki yillarida "Bosmachilik" deb nomlangan milliy istiqloлчаilik harakatidan shaxarni himoya qilish uchun qal'a hududida qizil armiya gornizoni joylashgan.

1919-yilning 19-27 sentyabr kunlari shaxarni qizillardan tozalamoqchi bo'lgan 7000 kishilik milliy ozodlik xarakatchilari komunistlarga qarshi qonli janglar olib bordi. Lekin bu to'knashuvda qal'aga mustaxkam joylashib olgan garnizonga qizil armiya qo'shinlari Farg'onadan yordam yetib keldi. Qizil armiya otryadi va A. P. Kasolapov komandirlik qilayotgan Kaspiy frontining Qozon polki katta ko'mak berdi.

Yer-suv isloxoti davrida bu yerda ya'ni "qal'a"da davlat organlari va omborxona joylashdi. 1937-1938 yillarda qatag'onchilar shtabi, urish yillarida esa xarbiy noziriy istexkomga aylatirildi. Bu erda asosan snayperchilar tayyorlanar edi

1960-yillardan keyin shafyorlar tayyorlash va sport komiteti faoliyat ko'rsatdi. 1985-86 yillarda "Me'mor" maxsus ta'mirlash ustaxonasi tomonidan qayta ta'mirlandi. Ming afsuski, "qal'a" o'z asliga qaytmadi.¹

1968-yillarga kelib Andijon-O'sh yo'lining ochilishi munosabati bilan qal'a ikki qisimga ajratilib qo'yildi. Katta qismi buzib yo'q qilindi. Qolgan qismida esa devorlar nuray boshladi, burchak minorasi va kuzatuv maydoni butunlay buzulib, o'rtadagi quduq va yer osti yo'llari tuproq ostiga ko'milib ketdi.

Rivoyat qilishlaricha, quduq suv olish uchun emas qatl qilinganlarni jasadlarini yo'q qilish uchun ishlatilgan ekan. Ya'ni murda quduqqa tashlanadi, so'ng ustidan so'ndirilmagan oxak tashlanadida suv quyiladi. Xidlanib ketmasligi uchun esa maxsus tayyorlangan qopqoq bilan yopib qo'yilgan ekan. Bu rivoyat 1987-yilgi "Buyuk oktyabr revolyusiyasi"ning 70 yilligi munosabati bilan ta'mir ishlari davomida quduq tozalangan vaqtda u yerdan juda ko'plab inson suyaklari chiqqanligi buning dalilidir.²


Ma'lumotlarga qaraganda qal'a ichida oxak sexi mavjud bo'lgan. U taxminan hozirgi zindon ortida joylashgan bo'lib, bir necha metr pastroqda joylashgan. Qatl qilinuvchilarning ba'zilarini zindondan olib chiqib jarlik yoqasiga olib kelib otganlar. Murdalar esa oxak sexining maxsus shu ishlari uchun tayyorlangan xumlarga tushganlalarda yonib kulga aylanganlar.

Yana bir rivoyatda atilishicha "qal'a"da yer osti yo'llari mavjud bo'lgan ekan. Maxalliy axolini aytishicha rus zobitlari shaxar markazida bir laxzada paydo bo'lar va shu tariqa qal'a tarafga xarakatlanmasalarda g'olib bo'lib qolar ekanlar. "Qal'a"da yer osti yo'llari haqiqatdan ham bo'lganmi yoki yo'qmi 1987-yillardagi yuqorida aytib o'tilgan restovratsiya vaqtlariga to'g'ri keladi. Avvaliga

¹ Yusupov D. "Qal'a"-me'moriy yodgorligi, // "Andijonnoma", 2010-yil. 17-aprel. №33.B.4

² Dots. Yusupov E. shaxsiy arxividan.

uni o'sha quduq ichida bo'lsa kerak deb taxmin qilishdi. Ammo ma'lumotlarga qaraganda zobitlar tezlik bilan yer osti yo'liga kirishgan va chiqishda xam xuddi shunday tezlikda, ba'zi xolatlarda maxbuslar bilan qaytganlar. Quduqda esa zinapoyalar yo'k. Demak arg'amchi yordamida xarbiylar xarakatlanganlar, lekin bu xolatda ularning xarakatlanishi unchalik tez bo'lmagan bo'lishi kerak. Bu esa xarbiy garnizon sharoitida mutlaqo mantiqqa to'g'ri kelmaydi. qizigi shundaki o'sha yerosti yo'liga kirish joyi darvoza yaqinidagi devor ostidan o'tilar ekan. Uning uzunligi bir necha kelometrga yetib borgan va hozirgi markaziy bank



atrofida 3 qismga ajragan: bir qismi hozirgi vogzal oldingi general uyiniing yerto'lasiga ulangan bo'lib, qo'zgalon boshlansa general osongina o'z uyidan qal'aga evakuatsiya qilingan. Ikkinchi tunel esa eski shaxar teritoriyasida joylashgan Oq uygacha yetib borgan bo'lib, uni qazishdan maqsad agarda shaxarning eki shaxar qismida g'alayon boshlanib qolgudek bo'lsa osongina uni bostirish imkoni paydo bo'lgan (uni ko'rgan guvoxlar xam mavjud. Guvoxlar birining aytishicha Oq uy yer to'lasida temir eshik bo'lib uning ichiga kirganida u uzoqqa cho'zilgan tunelligini, o'rta qismlari tushib ketganligi tufayli bir necha mertgina kirganligini aytdi, Uning takidlashichya tunelda faqatgina piyoda xarakatlanish mumkin bo'lgan). Oxirgi tunel esa hozirgi "Ekin-tikin" tumaniga adirlar orasiga chikuvchi yo'l xisoblangan. U asosan qochish

maqsadida qazilgaii rus millatiga mansub yoshi taxminan 65-75 larga yetib qolgan bir inson shunday bir voqeani aytib berdi: “U vaqtlarda yosh bola edim, do’stim bilan adirlarni sayr qilish maqsadida xozirgi Ekin-Tikin tarafga bordik. U yerdan ikki tunel teshigi chiqar edi, ulardan biriga kirdik. Ammo oralariga tuproqlar tushib ketganligi sababli tezda qaytdik. Do’stim u yerdan rus zobitlariga tegishli sablya qilichini topib oldi”.¹

“Qal’a”da 5 ta yer osti yo’li xam mavjud bo’lgan. U “qal’a” ostiga qazilgan bo’lib, u asosan xo’l meva va sabzavotlar, qurol aslaxa va o’qdorilar omborxonasi sifatida foydalanilgan.

Yuqorida aytib o’tilgan “Buyuk oktyabr revolyusiyasi”ning 70 yilligi munosabati bilan olib borilgan ishlar davomida yer osti yo’lining kirish teshigi berkitilib yuborilgan.

1985 - 1990 yillarga kelib me’moriy yodgorlik sifatida ro’yxatga olindi. Obida maxsus loyixa asosida "Me’mor" ilmiy ta’mirlash ustaxonasi tomonidan xozirgi xolatida ta’mirlandi.

Ta’mirdan so’ng dastlab, O’lkashunostlik muzeyiniig bo’limi sifatida "Shon - shuxrat" muzeyi tashkil etildi. Bu muzeyni tashkil etish muzey xodimlariga ko’plab mushkulliklar tug’dirdi. Sababi Ulug’ vatan urushidan so’ng ko’plab rus va boshqa millatlar qal’a ichiga joylashtirilganligi tarixdan ma’lumdir. “Qal’a” ichiga evakuvatsiya qilinganlar, yerlarni bo’lib olishda tartibsiz xolatda har xil hajmlarda taxsimlab olishgan. Buning oqibatlari esa keyingi yillarda ko’zga tashlana boshladi. Masalan, hozirda qal’ada saqlanib qolgan yagona bino devorlariga e’tibor berilsa xar bir xona aloxida oila uchun uy bo’lganligini bilishimiz mumkin. Keyinchalik esa ba’zi xonalari magazin xattoki omborxona vazifasida xam foydalanilgan.

Bundan tashqari u yerdan axolini ko’chirish juda ko’plab qiyinchilik va tashvishlarni yuzaga chiqardi.

1992-yildan esa Viloyat Adabiyot va sa’nat muzeyining "Qo’lyozmalarni o’rganish ilmiy markazi" faoliyat kursatgan. 2004-yilga kelib

¹ Dots. YusupovE. shaxsiy arxividan.

Andijon viloyati Adabiyot va sa'nat muzeyining "Tasviriy sa'nat" bo'limiga aylantirildi.¹

Hozirda shu muzey bo'limi "qal'a" me'moriy obidasida faoliyat olib bormoqda.

2.Bob. Qutayba ibn Muslim maqbarasi o'lka tarixini o'rganishdagi roli va ahamiyati.

Tarixiy manbalarda Andigon, Andikon, Andugon, Andigan toponimlari bilan atalib kelingan Andijonning tarixi qadimiy va navqiron.¹ Bu zaminda uzoq

¹Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi 132-fond

o‘tmishni aks ettiruvchi tarixning nodir namunalari juda ko‘p. Bular sirasiga hozirda davlat muhofazasiga olingan madaniy meros obektlarini misol qilishimiz mumkin. Ularda O‘rta Osiyo me‘morchiligining ko‘plab turlari va ko‘rinishlari mavjud. Ana shunday obidalardan biri Qutayba ibn Muslim nomi bilan bog‘liq maqbara hisoblanadi.

Andijon viloyatining Jalalquduq tumanida Qatortol degan qishloq bor. Bir qarashda bu yer oddiy qishloqdan farq qilmaydi. Ammo, uning tarixi olis o‘tmish bilan bog‘liqligini ma’lum narsalar aks ettiradi.

Xususan, bu yerda qishloqning o‘tmish tarixidan xabar beruvchi yodgorlik ham mavjud. Bu Qutayba ibn Muslim nomi bilan bog‘liq Qutayba ibn Muslim jome masjid majmuasi hisoblanadi. Xo‘sh, Qutayba ibn Muslim kim bo‘lgan, qanday ishlarni amalga oshirgan, xalqimiz nima sababdan bu qadamjoni shu insonga atab barpo etgan va obod maskanga aylantirgan?

Muarrirlarning ma’lumot berishlaricha, Qutayba ibn Muslim O‘rta Osiyo zaminiga muqaddas Islom dinini yoyilishida muhim o‘rin tutgan shaxs.

Asl ismi Abu Hafs Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy bo‘lib, tarixiy manbalarda uning 660 yili tug‘ilib, 715 yilda vafot etganligi qayd etiladi. Qutayba qays (qaysit) nomli shimoliy arab qabilasiga mansub bo‘lgan.²

Beshinchi ummaviy xalifa Abdul Malik ibn Marvon davrida Ray shahriga, oltinchi xalifa Valid ibn Abdul Malik davrida 705 yili Xuroson o‘lkasiga voliy-hokim bo‘lgan.³ Dastlab Xuroson va Toxaristonni to‘la ravishda arablarga bo‘ysundiradi. So‘ngra u 706-715 yillar orasida Movarounnahrning katta qismini arab xalifaligiga tobe qilgan.⁴ Qutayba (r.a) xalq va elatlarga Islom dinini olib kirdi va dinni mustahkamlash uchun zamin yaratdi. Rivoyatlarga qaraganda, shu erlik

¹ Jalilov S. Andijon. Toshkent., "O‘zbekiston", 1989, B.10-15

² O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. . Toshkent., O‘zME, 2005, 11-jild, B.170

³ [http:// siyrat.uz](http://siyrat.uz)

⁴ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., O‘ME, 2005, 11-jild, B.170

xukmdorlardan biri bo'lgan Ku Lunj boshchiligini ham tor – mor etadi. Uning qizi Sultonbegimga uylanadi va uchta farzand ko'radi.¹

Qutayba ibn Muslim haqida Ismoil Haqqiyning “Tafsiril ruhil bayon” Tavba surasining 41-oyat, 5-juz, 51-sahifasida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Qutayba ibn Muslim (r.a) to'qson to'rtinchi yili (7 oktyabr 712- 25 noyabr 713) Buxoro xisorining ichida masjidi jome bino qiladi. U joy ilgari butxona edi.¹² Qutayba ibn Muslim boshqa shaharlarda ham masjidlar qurdirib, zardushtiylik va buddaviylikka qarshi ayovsiz kurash olib bordi.

Qutayba ibn Muslimning yangi xalifa Sulaymonga bo'ysunmasligi arab qo'shinlari o'rtasida unga nisbatan norozilik paydo bo'lishi va isyon ko'tarilishiga olib keldi.

Arablarning shaybon qabilasiga mansub Xoyyon an-Nabatiy (uning 7 ming kishilik qo'shini bo'lgan) va tamim (tamimiy) qabilasi vakili Vaqi ibn Abu Sud boshchiligidagi isyonchilar Qutayba ibn Muslimning chodiriga bostirib kirib, u bilan birgalikda Abdurahmon, Abdulloh, Solih, Xusayn, Abdukarim nomli ukalarini, o'g'li Kasir ibn Qutayba va jiyanlarini (jami 11 erkakni) o'ldirishgan³.

Qutayba (r.a)ning qayerda o'ldirilgani va qabri xozir qayerda ekani haqida ikki xil ma'lumot bor:

Biriinchisi: Xuroson o'lkasida.

Bu haqda imom Buxoriy “At-tarixul kabir” (7/462), “At-tarixus sag'ir” (2/34), Tabariy “Tarixul umami val mulk” (4/34), Zahabiy “Al-ibar fi xabari man g'abar” (1/20), Ibn Asir “Al komil fit tarix” (18/19), Ibn Javziy “Al-muntazam fit tarix” (7/12), Usfuriy “Tarixu Xalifa ibn Hayot” (1/234), Abdul Hay ibn Ahmad Dimashqiy “Shazarotuz zahab fi axbori man zahab” (1/105), Ibn Durayd “Al-ishtoq” (1/75) va Nuvayriylar “Nihoyatul arab fi fununil adab” (6/69) kitoblarida: “Qutayba ibn Muslim Xurosonda o'ldirilgan”, deyishadi.

Ikkinchisi: Farg'ona vodiysida.

¹ Yusupov D. Qutayba ibn Muslim ziyorotgohi, Andijon, //”IQBOL “2014 yil №20 . B.4

² Meros.-Toshkent, ”Камалак”, 1991, B.124

³ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., O'ME, 2005, 11-jild, B.170.

Bu haqda Ibn Asokir “Tarixu Dimashq” (21/474), Ibn Xallikon “Vafoyatul a’yon” (4/88), Zirikliy “Al-a’lom” (5/190), Safadiy “Al-vofiy fil vafayot” (5/99), Ibn Qutayba “Al-ma’orif” (1/100), Abu Ya’lo Xaliliy “Al-irshod fi ma’rifati ulamoil hadis” (3/201), Askariy “Al-avoil” (1/111) va Ahmad ibn Marvonlar “Al-mujolasatu va javohirul ilm” (4/90) kitoblarida: “Qutayba ibn Muslim Farg‘onada o‘ldirilgan” deyishadi.¹

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xuroson o‘lkasi geografik jihatdan Amudaryoning janubiy-g‘arbiy tarafida joylashgan bo‘lib, uning Nishopur, Marv, Balx kabi yirik shaxarlari mavjud bo‘lgan. Hozirgi kunda Xuroson o‘lkasi Turkmaniston, sharqiy eron va Afg‘oniston davlatlari hududiga to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona vodiysi Movarounnahrda joylashgan bo‘lib, hozirgi Farg‘ona, Andijon, Namagan, Xo‘jand, O‘sh viloyatlarini ham o‘z ichiga olgan.

Movarounnahr xususan Farg‘ona vodiysi ham siyosiy jihatdan Xurosonning tarkibiga kirgan. Yuqoridagi malumotlar asosida Qutayba (r.a) Xurosonning siyosiy tarkibida bo‘lgan Movarounnaxr diyoridagi Farg‘ona vodiysida o‘ldirilgani va qabri xam o‘z-o‘zidan shu vodiyl xududida ekani o‘z isbotini topadi degan xulosa qilish mumkin.

«O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi»da: «Qutayba ibn Muslim Koh qishlog‘i (hozirgi Qatortol qishlog‘i) dagi Raboti Sarhang (hozirgi Mozorbuva) qabristoniga dafn etilgan» deyiladi.

At Tabariy(839-923)ning “Tarix ar-rasul va-l-mulk va-l-xulafo” (Payg‘ambarlar, podshoxlar va xalifalar tarixi) nomli ko‘p jildlik kitobida arablarning aniqrog‘i xalifa Al-Volid I (705-715)ning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim (715-yilda Andijon yaqinidagi Qilichmozor mavzeida o‘ldirilgan)ning Qoshg‘arga qilgan yurishi va bu yurishning tinch yo‘l bilan hal bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham mavjud.²

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar Qutayba ibn Muslim umrining so‘ngi yillarini Jalalquduq hududida yashab, shu yerda avlodlar qoldirganligi haqida ma’lumot

¹ [http:// siyrat.uz](http://siyrat.uz)

² AhmedovB. Tarixdan saboqlar. Toshkent.,”O‘qituvchi.”1994-yil,B.269-270 .

beruvchi hujjatda o'z tasdig'ini topadi. Ushbu hujjatni yer vasiqasi, nasabnoma-shajara (1875- yilgacha) kabi bo'limlari mavjud bo'lib, ularda Qutayba (r.a) Ko'kbuloq (VII-VIII asrlarda Qatortol hududi shunday atalgan)ni egallagandan so'ng, Sultonbegimga uylanib, uch: Baxmalpush, Kalonshox va Anvar Qosim ismli o'g'illar ko'rganligi, uning avlodlariga berilgan yer vasiqasi (kadastr) hujjatlari va nasabnoma o'sha davr qozilari muhrlari bilan tasdiqlangani haqida ma'lumotlar bor. Vasiqa hujjatida Qutayba ibn Muslim avlodlariga katta yer mulki qolganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Lekin, Qutayba (r.a)ning avlodlaridan biri Saidabbosxon akaning aytishicha bu yer mulklarning katta qismi Sovetlarning Kollektivlashtirish siyosati davrida tortib olingan. Hujjatda quyidagi satrlar ham mavjud: Bir parcha alohida yer Chuvalachiga boradigan yo'l yoqasida joylashgan, mahalla guzariga yaqin, bu yer quyidagi chegaralarga ega: G'arbida Qora yig'chi jamoasiga qarashli yerga tutashgan, Janubidan O'razboy Shomzo o'g'li yeriga tutashgan, yana Sohibnazarboy Eshmatqul so'fini ajratib qo'yilgan yeriga tutashadi. Yer yana Qorasuv yeriga ham chiqadi. Sharqida To'yliq aholisining ajratilgan yerriga tutashgan va yana omma yeriga borib yetadi. Ba'zan esa omma yo'lga ham bir tomoni chiqadi. Shimolida Andijon soyiga tutashgan va bu yerni mazkur ulug' kishining yeridan oqib o'tadigan suv bilan sug'oriladi. Qadim zamonlardan beri to hozirgi paytgacha bu yer shu xildagi ko'rsatilgan chegaralarida vasiqasi bor. Bu yer Honxoja eshon, Ismoilxoja eshon, Yunusxonxoja eshon va Sarimsoqxoja eshonlarning mulkidir.

Hujjatning orqa tomoniga quyidagi yozuvlar bitilgan bu shajara 1875-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, uning tarjimasi quyidagicha:

1.
2. Ibn Said Sodiqxo'ja
3. Ibn Said Tojixo'ja
4. Ibn To'raxo'ja
5. Ibn Yunusxo'ja
6. Ibn Boboxo'ja
7. Ibn Shoabdulloxo'ja

8. Ibn Amir Said Obidxo'ja
9. Ibn Amir Said Aloxo'ja
10. Ibn Amir Said Abdulloxo'ja
11. Ibn Amir Said Siddiqxo'ja
12. Ibn Amir Said Solihxo'ja
13. Ibn Amir Said Shoxfozilxo'ja
14. Ibn Amir Said Salohiddinxo'jja
15. Ibn Amir Said Isxoqxo'ja
16. Ibn Amir Said Yahyoxo'ja
17. Ibn Amir Said Ismoilxo'ja
18. Ibn Amir Said Mahdixo'ja
19. Ibn Amir Said Mavlonoi Mirxo'ja
20. Ibn Amir Said Muzaboy Makkiy
21. Ibn Amir Said Shox Qosim Askariy
22. Ibn Amir Said Sharoshidxo'ja
23. Ibn Amir Said Shoansoriyxo'ja
24. Ibn Amir Said Shoqosimxo'ja
25. Ibn Amir Said Shoqosim Anvari
26. Ibn Amir Said Shodarvesh Valiy
27. Ibn Amir Said Abdulloh Baxmalpush
28. Ibn Amir Said Xazrat shoh Qutayba
29. Ibn Amir Said xazrat imom Muslim
30. Ibn Amir Said xazrat imom Umar
31. Ibn Amir Said xazrat Ali karamullohu vajhuhu
32. Ibn Abu Tolib razuyallohu anhu

Hujjat arab, fors va turkiy tillarda yozilgan bo'lib, uni asl nushasi ilk bora Muhammadjon Abdurahmonov tomonidan 1991-1995 yillar davomida o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bugungi kunda hujjat ustida yangi tarjima ishlari olib borilmoqda.

Unda keltirilgan shajaradan Qutaybaning avlodlari hozirgi kunda Qatortol qishlogʻda yashab, istiqomat qilayotganliklari aniqlandi. Qutayba(r.a)ning avlodlaridan Mashrabxoxoʻja ogʻli Saidabbosxon Saydullaevning honadoni masjid bilan yonma-yon tarzda joylashgan va shu ziyoratgohda hozirgi kunda xizmat qilib kelmoqda. Shajara vakillari bu ulugʻ maskanni qarovsiz qolmasligiga harakat qilganlar va ziyoratgohni uzoq yillardan beri asrab avaylab kelishmoqda.

Aytishlaricha, Sohibqiron Amir Temur bu joylarni ziyorat qilib, Qutayba ibn Muslim qabri ustiga Samarqanddan meʼmor joʻnatib koʻrkam va mahobatli maqbara qurdirgan. Bu maqbara 1935 – 1936 yillarda daxriylar tomonidan buzib tashlangan.

1975–1978 yillarda viloyat rahbari Bektosh Rahimov tashabbusi bilan milliy meʼmorchilik anʼanalari asosida qayta qurilgan ikki xonali maqbaraning asosiy xonasi tashqaridan kvadrat asosida boʻlib, ichkarisi sakkiz burchakli, tomonlari chuqur mehrobsimon ravoqlar bilan koʻtarilib, diametri 5,5 metrli **“Sholgʻom”** gumbazi bilan yopilgan, oʻrtada oddiy qabr. Maqbara gʻarbidagi dahliz ziyoratchilar uchun moʻljallangan. Ravoqlar orasiga sakkizta yoysimon uchburchak shakldagi qolpoqi ganch , gumbaz osti zardevoriga yengil naqsh bitilgan.¹ Shuningdek, maqbara peshtogʻiga “Oli Imron” surasi, 169-oyat bitilgan.

Ushbu maqbara Qutayba ibn Muslim nomi bilan ataluvchi masjid majmua hovlisining oʻrtasida joylashgan. Maqbaraning chap tarafida nomsiz qabr mavjud boʻlib Qutaybaning avlodidan boʻlgan Sarimsoqxoʻja eshonning qizi Sarimsoqova Turdixonposhshaga nisbat beriladi. Qabrning yonida qayragoch daraxti bor, undan malum muddat qizil suyuqlik ajralib chiqadi. Xalq orasida bu suyuqlik shifobaxsh sanalib, u turli yara va toshmalarga davo boʻladi deya ixlos qilinadi.

Sovetlar hukmronligi davrida meʼmoriy obidalarining taqdiri ogʻir kechdi, eʼtibordan chetda qoldi. Qayta qurish va taʼmirlash ishlari kam koʻrildi, bajarilganda ham tarixiy, ilmiy asoslardan yiroq tarzda amalga oshirildi. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng Prezidentimiz tashabbuslari bilan Vatanimiz xududidagi barcha madaniy meros obʼektlari davlat muxofazasiga olinib

¹Yusupov D. Qutayba ibn Muslim ziyorotgohi, Andijon../”IQBOL” 2014 yil №20.B.4

milliyligimizga xos tarzda qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shu jumladan Qutayba ibn Muslim majmuasi ham madaniy meros maskani sifatida davlat muhofazasiga olingan.

3.Bob. “So’fi ota” masjidi tarixiy- me’moriy yodgorlik sifatida.

Baliqchi turkiy tilda “shaxar” degan manoni bildirib, Andijondagi yirik tuman va uning markazi Baliqchi deb ataladi.¹ Baliqchi tumanida ko’plab ziyoratgohlar va madaniy meros obektlari bor, shulardan biri So’fi ota masjid va maqbarasidir. So’fi ota masjidi madaniy me’ros obekti O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi tomonidan ro’yhatga olingan. Yer uchastkasining kadastr raqami 17030104060027, davlat ro’yhatidan o’tkazilganligi tog’risidagi Guvohnoma seriyasi O’Y tartib raqami № 282000 bino va inshoatlarga: seriyasi TA tartib raqami № 0839401. Madaniy meros obyektining nomi “So’fi ota “ masjidi bo’lib, Andijon viloyati, Baliqchi tumani, Guliston QFY da joylashgan. Tipologik mansubligi: arxitektura yodgorligi bo’lib, 1750-1756 yillarga taluqli, arxitektura merosi yodgorlik toifasi mahalliy ahamiyatda. Hozirgi Guliston qishlog’ining avvalgi nomi “Gadoy topmas” bo’lib, bu so’z mazmuniga ko’ra avval bu joylar markaziy aholi yashash manzillaridan olisda, topib borish qiyin bo’lgan botqoqlik, to’qayzor ekanligidan dalolat beradi.

Tarixdan ma’lumki, ovul, qishloq va shaharlar oqin daryo, buloqlarga boy maskanlarda shakllangan. Shuningdek, bu boradagi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, tarixiy diqqatga sazovor va muqaddas ziyoratgohlarni shifobahsh buloqlar o’ramida bo’lishligi ham hayotiy zaruriyat edi. Demak, qadimiy botqoqlik va to’qayzorlar bag’rida Gadoytopmas qishlog’ini paydo bo’lishida hozirgi So’fi ota ziyoratgohining muqaddas shifobahsh buloqlari va ular atrofiidagi serunum yerlar asos bo’lgan. Qishloqning yoshi hamda So’fi ota haqida aniq tarixiy yozma manba saqlanmagan.²

1974-1975 yillarda Andijon viloyat o’lkashunoslik muuzeyidan arxeologlar, qadimshunosllar kelib Sarvontepada qazish ishlarini olib borishdi.

¹ Qurbonov Sh. Baliqchiliklar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008,20-bet

² Andijon viloyati madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi “So’fi ota” masjidi madaniy meros obekti kadastr ishi hujjatidan.

Sarvontepaddan topilgan mehnat qurollari hamda sopol idishlar janubiy-g'arbiy Tojikistondan topilgan "Xisor madaniyati"ga oid deb hisoblanib, Baliqchining paydo bo'lish tarixi eramizdan avvalgi III-II asrlarga to'g'ri keladi.¹

So'fi ota esa XIV-XV asrlarda yashab o'tgan 7 og'a-ini va bir qiz ya'ni: Mirvali poshsho, So'fii ota, G'oyib buva, Qurbon buva, Qilich Burxon buva, Toyloq ota, Daxyo ota va singillari Tuzliq ona hisoblanadilar.²

So'fi otaning qabri aniqlangan emas, lekin ajdodlarimiz mulohazalari bilan tahminiy fikrlar qilishib So'fi ota qabrini ramzini qabrston o'rtasiga tiklashga rozi bo'lishgan ekan. O'tmishda ulug' ajdodlarimiz tiklagan qabr ramzi va qabrni o'z ichiga olgan kichik hajmdagi maqbara hozirgacha qabrston o'rtasida qad ko'tarib turibdi. Maqbara vaqti-vaqti bilan ta'mirlanib turiladi. Maqbara atrofidagi qabrston juda qadimiy bo'lib, u yerga Gadoy topmas mahallasi, Yalamush, Katta buloq mahallalari va Baliqchi yurtining markaz mahallasi xalqi o'tganlarini shu qabrstoniga dafn etadilar.³

Qishloq oqsoqollaridan biri Tursunahmad hojining so'zlariga ko'ra, So'fi ota (to'liq ismi ma'lum emas) va uning og'a inilari Turkistondan kelgan va ular Xoja Ahmad Yassaviyning shogirdlari bo'lishgan.

So'fi ota qishloq markazidagii buloqlar atrofida istiqomat qilgan. U diniy ulamo, karomatgo'y, soda, halol, to'g'ri, Allohga yaqin keng mulohazali inson bo'lganligi uchun ham aholi So'fi ota deb e'zozlagan. Olamdan o'tgach buloqlar yaqinidagi qabrstoniga dafn qilinib, qabriga maqbara qilingan, qabrston So'fi ota nomi bilan atalgan.

Qabrston yoniga XVIII asr o'rtalarida hashar yo'li bilan masjid tiklandi. Masjid qurilishiga namanganlik ustalar taklif etilgan. Mahalliy aholi masjidga ham So'fi ota nomini berishgan bo'lib, u viloyatda bizgacha yetib kelgan eng qadimiy namozgoh sanaladi. Qurilishda xotin-qizlar ham ishtirok etib, kechasi g'isht taxlab qo'yishgan, kundizi ustalar ishlatishgan. Masjid devorining qalinligi 1m ga 90 sm qalinlikda.

¹ Qurbonov Sh. Baliqchiliklar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008, 20-bet

² Mulla Qurbon Xaydarali og'li. – Toshkent: Fan, 2008, 40-bet

³ O'sha manba

1930-yilgacha Gadoytopmasda 7 ta masjid bo'lib, daxriylik siyosati natijasida 6 tasi buzib yuborilgan. Faqatgina "Pravda" kolxozining raisi Matqosimov Akbaralining oqilona harakati bilan masjidga jamoa qo'yini qamab, qo'yxona sifatida saqlab qolingan. So'fi ota masjidi 1750-1756 yillarda, maqbarasi esa 1780-yilda qurilgan. So'fi ota masjidi 1998-yil 11- avgustda №1 raqamli guvohnoma bilan adliya ro'yhatidan o'tgan. Tuman hokimining 2009-yil 15-iyun №204-Q sonli qarori bilan yer maydoni va inshootlarga egalik qilish huquqi berilgan.¹

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq noo'rin foydalanish, qor, yomg'ir chakkalaridan zarar ko'rgan masjidda ta'mirlash, qayta tiklash va qo'shimcha qurilish ishlari olib borildi. Masjid tomi qalin tuproqlardan yengillashtirilib, tepasiga qayta yopilgan. Qadimiy xonaqoh ichkarisidan 6 ta qo'shimcha tirq'ovuch ustun qo'yildi. Eski binoga tutash qilib yangi katta namozgoh qurildi. Butun katta ko'cha bo'ylab pishiq g'ishtdan milliy me'morchilik an'analari asosida mahobatli peshtoq va o'rtacha asosiy kirish darvoza bunyod etilgan. Umumxashar yo'li bilan amalga oshirilgan bu ishlarga masjidning imom xatibi To'lanboy domla rahbarlik qildi, Tursunahmad buva, Ro'zimboy buva, Tojiddin aka kabi fidoiy insonlar tashkiliy ishlarda faol qatnashdilar.

¹ Andijon viloyati madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi "So'fi ota" masjidi madaniy meros obekti kadastr ishi hujjatidan.

XULOSA

Mustaqillik sharofati bilan ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va ahloq, ayniqsa madaniy merosimiz qaytadan tiklanmoqda va yangilanmoqda. Zero, madaniy merosni o'rganmasdan turib, istiqbolni belgilab bo'lmaydi. Kelajakka intilish uchun o'tmishni o'rganish tajribalarni o'zlashtirish zarur.

O'tmishdan keyingi avlodga vorislik sifatida qoldirilgan, tarixning og'ir sinovidan o'tgan, saralangan, insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy madaniyat majmuidan iborat bo'lgan madaniy meros keng xalq ommasining madaniyati va ma'naviyatining gavhari tarzida namoyon bo'ladi. U tabiiy boyliklar, ishlab chiqarish, kishilarning mehnat faoliyati, tafakkuri, aql-idroki, iste'dodi asosida shakllanadi, hamda tadrijiylik va vorisiylikka ko'ra mo'ayyan tuzum va tarixiy davrning ta'siri asosida rivojlanadi. Xuddi mana shu jarayonda tarkib topa boradigan madaniy merosning namunalari jamiyatni mulkigina bo'lib qolmaydi. U o'z navbatida shu jamiyatni o'tmishning tarixiy tajribalaridan olingan xulosalari asosida taraqqiyotga, kelajak sari rivojlanishga undab boradi. Zero, qadimgi Yunon faylasufi Avgustin «Mabodo g'aflatda yotgan xalqni uyg'otmoqchi bo'lsang, avvalo uni tarixini uyg'otgin» deb bejizga yozmagan edi. Xuddi shuningdek dunyo fizikasining etuk asoschilaridan biri I.Nyutondan,- «Siz ajoyib kashfiyotlarga qanday erishdingiz?», -deb so'raganda u: «Men buyuk ajdodlarim elkasida o'tirgandim», - deb javob berganida ham o'z xalqining madaniy merosi uning uchun olamni bilish, uning qonuniyatlarini kashf eta borishining qudratli manbai bo'lganiga ishora qilib aytgan xulosasi edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida Andijon viloyati hududi eng qadimiy madaniyat o'choqlardan bo'lib, o'zining qadimiy tarixiga egadir.

Bu qadimiy va tabarruk zamindan buyuk allomalar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan, diniy va dunyoviy ilmlar paydo bo'lgan va rivojlangan, suv inshootlari, shaharlar, tarixiy va me'moriy yodgorliklar barpo etilib, ko'plab og'zaki va yozma boyliklar yaratilgan.

Bosqinchilik davrlarida, ayniqsa chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri va sho'rolar tuzumida Andijon xalqimizni bo'ysundirish va qaram qilish maqsadida madaniy merosimiz vayron qilingani, uning eng noyoblari tashib ketilgani, olimlar va ijodkorlar qatag'on qilingani, hatto qatl etilganini o'tmishdan yaxshi bilamiz. Bunday xurujlar va toptalishlar madaniy merosimizning saqlanishi va avlodlarimizga yetib kelishida o'rnini qoplab bo'lmas darajada ziyon etkazdi.

O'tmishda asoratga solingan, toptalgan, tahqirlangan madaniy merosimizga munosabat faqat mustaqillik davrida tubdan o'zgardi.

Bu eng avvalo shu bilan izohlanadiki, agar sobiq sho'ro davrida madaniyatga va madaniy merosga sinfiylik, inqilobiylik hamda partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshilgan bo'lsa, mustaqillik davrida bu masalaga umuminsoniylik, milliylik va fikrlar xilma-xilligi, ayniqsa, xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillariga ko'ra munosabatda bo'lish zaruriyati hayot haqiqatiga aylandi. Madaniy-ma'naviy merosimizga yuqoridagi kabi tamoyillarga munosabatda bo'lish asosida dunyoviy ilmlarni va diniy falsafiy tafakkurni o'zida o'yg'unlashtirib bir necha andijonlik olimi fuzalolarning merosi va tarixiy yodgorliklar va qadamjolar tarix durdonasiga aylandi.

Xullas, Andijonning mustaqillikka erishishi bilan xalqimizning madaniy merosini tiklash va yangilash hamda ularga ongiga etkazish va turmush tarziga singdirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi va vazifasiga aylandi.

Bir so'z bilan aytganda, istiqlol yillarida Andijonda madaniy merosning tiklanishi va yangilanishi hamda xalqimiz ongiga etkazilishi misli ko'rilmagan suratda o'sib bormoqda. Bu ishlarimiz odamlarimiz, ayniqsa yoshlarimizda milliy g'urur va iftihorni, Vatanga muhabbat va sadoqat hissini yanada ko'chaytirib, mamlakatimizda demokratik, erkin, huquqiy, bozor munosabatlariga asoslangan va fuqarolik jamiyatini muvaffaqiyatli qo'rishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarini chuqurlashtirish yo'lida. T., "O'zbekiston", 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T., "O'zbekiston", 1996. – B.364
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., "O'zbekiston", 1996.2-jild – B.366 .
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T., "O'zbekiston", 1997. 5-jild-B. 384.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998. –B.31.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., "O'zbekiston", 2000.8-jild – B.528 .
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T., "O'zbekiston", 2001. 10–jild.B. 408.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., "O'zbekiston", 2011.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., "O'zbekiston", 2012-yil, B.10.
- 11.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent., O'qituvchi. 1994-yil, 269-270 betlar
12. Азимов И. Архитектурны памятники Фергаской долины. Ташкент:. Узбекистан. 1982-г.-Ст.51-53
- 13.Bugungi Andijon. Андижан сегодня. Andijan today.T., "O'zbekiston", 2006
- 14.Ensiklopedik lug'at, O'z.S.E, 1988-yil, B.147.
- 15.Erkaev A. Mustaqillik va madaniy meros // "Muloqot", 1996, № 1.
- 16.Erkaev A. Ma'naviyat-millat nishoni. T., «Ma'naviyat», 1997 yil.
- 17.Islom ensiklopediyasi, Toshkent:.O'zME, 2004-yil, -B.155-177
- 18.Ismoilova X. Andijonda 1916 yilgi qo'zg'olon. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar". T., 1954, № 8,-B. 42.

- 19.Jalilov S. “Andijon”, Toshkent:.O‘zbekiston, 1989-yil,B.10- 56.
 - 20.Mansur.A, Qur’oni Karim,o‘zbekcha izohli tarjima,Toshkent:.”Cho‘lpon”,B.125-466 .
 - 21.Matboboyev B, Mashrapov Z, Andijon tarixi. Toshkent:. Sharq, 2014-yil,-B.16.
 - 22.Meros.Toshkent.,”Камалак”,1991, B.124
 - 23.Mulla Qurbon Xaydarali og‘li.Baliqchi tarixi.Toshkent.,”Fan”,2008, B.40
 - 24.Shamsutdinov R, Rasulov B. Turkiston maktabi va madrasalari tarixi. Andijon.,1995-yil, B.146.
 - 25.Shamsutdinov R, Ishoqov A, “Andijon tarixidan lavhalar”, Toshkent.,”Sharq”,2013,-B.90
 - 26.Qurbonov Sh. Baliqchiliklar. Toshkent.,”Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi”, 2008,-B.20
 - 27.Ziyayev X. O‘zbekistonda 1916 yil qo‘zg‘oloni ishtirokchilari, Toshkent:."Fan", 1977 yil, B. 75.
 - 28.O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent.,O‘zME, 2005,11-jild-B.170
 - 29.Abduraimov Q. Andijon me‘morlarining sardori,// “Vodiy gavhari”.2015-yil,№ 8,B.30.
 - 30.Mashrapov Z., Jalilov S., Matboboyev B.,Ko‘hna Andijonning IX-XV asrlardagi ma’naviy-ma’rifiy obidalar. // “Andijonnoma”. 2015-yil, 11-aprel,№33, B.2.
 - 31.Yusupov D. Qal’a”-me’moriy yodgorligi, // “Andijonnoma “2010.№33-son, B.4.
 - 32.Yusupov D. Qutayba ibn Muslim ziyorotgohi, // “IQBOL” . 2014 yil №20 . B.4
- Internet saytlar:
- [http:// siyrat.uz](http://siyrat.uz)
- [http:// muloqot.uz](http://muloqot.uz)
- [http:// ziyo.uz](http://ziyo.uz)
